

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
KUTUBXONASI**

IJOD BO‘STONI

Toshkent – 2006

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
KUTUBXONASI**

IJOD BO‘STONI

Mirmuhsin tavalludining 85 yilligi munosabati bilan

Metodik-bibliografik qo‘llanma

Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi
nashriyoti

Toshkent – 2006

78.342

I 25

Ilmiy – metodik bo‘lim tomonidan tayyorlandi

Tuzuvchi
Muharrir

N.Anvarova
O.Qilichboyev

Ijod bo‘stoni: Mirmuhsin tavalludining 85 yilligi munosabati bilan: Metod.-bibliogr.qo‘ll. /Alisher Navoiy nom. O‘zbekiston Milliy k-nasi; Tuzuvchi N. Anvarova; Muharrir O. Qilichboyev.- T.: Alisher Navoiy nom. O‘zbekiston Milliy k-nasi nashriyoti, 2006.- 56 b.

KBK 78.342+83.3(5U)

O‘zbekiston xalq yozuvchisi Mirmuhsin tavalludining 85 yilligiga bag‘ishlangan ushbu metodik-bibliografik qo‘llanma yozuvchi ijodini, merosini chuqur o‘rganish, targ‘ib qilishda kutubxona xodimlariga yordam berish maqsadida tuzilgan. Metodik-bibliografik qo‘llanmada yozuvch tavalludining 85 yilligiga bag‘ishlab o‘tkazish mumkin bo‘lgan tadbirlar turkumi haqida ma’lumotlar berilgan.

© **Alisher Navoiy nomidagi**
O‘zbekiston Milliy kutubxonasi
nashriyoti, 2006 y.

MUQADDIMA

*Mehr ila bitdi har bir bitigin,
Iste'dod tufayli dong'u dovrug'i.
Ravondir chizgilar,
Misralar yorqin-
Ulkan bir yurakning cho'g'i.
Hech qachon unutmas tarix-moziyni,
Sabotdir qalami hatto Cho'riga.
Izzatli xalqning olqishu mehri,
Nur bo'lib ko'chgandir qalbin to'riga!*

Jo'rayev O.

O'zbek xalqi tarixi va madaniyati, san'ati va adabiyoti qadim zamonlardan buyon sermazmun, serjilo va boy tafakkuri bilan boshqa xalqlar ma'naviyatidan ajralib turadi. Sho'rolar davrida o'zbek adabiyoti har qanday siyosiy-ijtimoiy "qoliplar" ichida bo'lsa-da, rivoj topdi, eng muhimi, ma'naviyat xazinasi, targ'ibotchisi, tarbiyachisi bo'lib xizmat eta oldi. Ayni bir paytda iste'dodli ustoz adiblar qatoriga o'nlab, yuzlab yosh ijodkorlar kirib keldi. Adabiy jarayondagi ular ijodini, qolaversa, adabiyot taraqqiyoti tarixidagi o'rni, rolini izohlovchi, baholovchi o'nlab maqolalar, monografiya, darslik hamda qo'llanmalar yaratildi. Shunday ijodkorlardan biri Mirmuhsin ijodiy faoliyatiga to'xtalib o'tishni joiz deb bildik.

Mirmuhsin dastlab adabiyotga shoir sifatida kirib kelgan, keyin nosir sifatida shuhrat qozongan ulkan adib bo'libgina qolmay, tanqidchi va tarjimon, jurnalist va hajvchi hamdir.

Uning asrlarini ko'pgina kitobxonlar sevib o'qiydi, ba'zan o'ziga yoqqan asarni qayta-qayta mutolaa qiladi va asar qahramonlariga taqlid qiladi. Bu esa ijodkorning yutug'idir.

2006 yil 3 mayda Mirmuhsin tavalludiga 85 yil to'ldi.

Bu sana munosabati bilan Mirmuhsin tavalludining 85 yilligini mamlakatimiz miqyosida o'tkazish rejalashtirilgan.

Kutubxonalarda adib hayoti va ijodiga bag'ishlangan adabiy-badiiy tadbirlar, davra suhbatlari, ijodkorlar bilan uchrashuvlar tashkil etish ko'zda tutilgan.

Respublika kutubxonalarining vazifasi kitobxonlar diqqatini Mirmuhsin ijodiga jalb qilish va keng targ'ib qilishdan iborat.

Bu ishda kutubxonalar adabiyotlar targ'ibotining kitob taqdimoti, ilmiy-amaliy konferensiya, kitobxonlar konferensiyasi, savol-javob kechalari, davra suhbatlari, adabiy-badiiy kecha, bilimdonlar bellashuvi, she'rxonlik bellashuvi, mavzuli va munozara kechalari, sahnalashtirilgan musiqali badiiy kechalar, uchrashuv va xotira kechalari, og'zaki jurnal, kitob ko'rgazmalari, adib asarlarining obzorlari singari turli-tuman shakl va usullardan foydalanishlari mumkin.

Bunday tadbirlar turkumini tashkil etish filoliglar, shoir va yozuvchilar, adabiyotshunoslar, jurnalistlar, san'atkorlar hamda adabiyot o'qituvchilarini jalb qilish lozim.

Kutubxonalarga: "Ma'naviyat va ma'rifat" markazining joylardagi bo'limlari, "Sog'lom avlod uchun", "Oltin meros", "Kelajak ovozi", "Nuroni" jamg'armalari, "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati, yozuvchilar uyushmasi vakillari, yozuvchilar, shoirlar, adabiyotshunos va tilshunoslar, san'atkorlar, jurnalistlar, xotin-qizlar qo'mitalari bilan hamkorlikda ommaviy tadbirlarni o'tkazishlarini maslahat beramiz.

Ushbu metodik-bibliografik qo'llanmada kutubxonalarda yozuvchi tavalludining 85 yilligiga bag'ishlangan tadbirlarni o'tkazishda kutubxonachilarga yordam berish maqsadida kitobxonlar bilan ishlashning ayrim shakllari ko'rib chiqilgan.

Mirmuhsin hayoti va faoliyati

(1921-2005)

O'zbek she'riyati va nasrining ko'zga ko'ringan namoyondalaridan biri, serbaraka ijodkor Mirmuhsin Mirsaidovdir.

Mirmuhsin 1921 yilning 3 mayida Toshkentning Qo'rg'on-tepa mahallasida kulol oilasida dunyoga kelgan. Maktabni bitirib, 1933 yil Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutiga o'qishga kiradi. O'rta maktabda o'qituvchi, yoshlar tashkilotida bo'lim mudiri, O'zbekiston radiosida muharrir bo'lib ishladi. Mirmuhsin qariyb qirq yil mobaynida "Sharq yulduzi", "Mushtum", va "Guliston" jurnaliga bosh muharrirlik qildi.

Adibning ijodi 30-yillardan boshlangan bo'lib, dastlab "Sherlarning mardligi", "Ovchi bolalar" (1936) kabi she'r va hikoyalar to'plamlari chop etilgan. Uning 1939 yilda yaratilgan "Qamar" nomli dostoni keyinchalik yirik epik janrga o'tishda ko'priklarni o'ynagan.

Ikkinchi jahon urushi va urushdan keyingi yillarda Mirmuhsin ijodi tobora ko'p qirrali va serunum bo'lib bordi.

U urush yillarida o'zbek xalqining mehnat va jang maydonlaridagi qahramonligini tasvirlovchi she'rlar yaratdi. Uning "Er yurak" (1942), "Vatan" (1942) to'plamlari bu jihatdan xarakterlidir.

Mirmuhsin dostonnavis sifatida ham tanildi. Uning "Usta G'iyos", "Do'nan" (1947), "Yashil qishloq", "Qadrdonlar" (1954), "Shiroq" va "Nevara" kabi bir qator dostonlari chop etildi. Bu dostonlarda zamondoshlar obrazi yaratilib, ularga xos mehnatsevarlik, vatanparvarlik va ma'naviy butunlik kabi fazilatlar ulug'lanadi. Doston janrida katta tajriba orttirgan shoir 1958 yilda "Ziyod va Adiba" she'riy romanini yaratdi. Xuddi shu davrdan boshlab adib nasriy janrlarga ham moyillik bildirdi. Uning "Dorbozlar" (1956), "Jamila" (1957), "Hikoyalar" (1959), "Qizil durralar" (1961), "Sozanda" (1963) kabi nasriy kitoblari nashr etildi. Uning birin-ketin yaratilgan "Oq marmar" (1958), "Cho'ri" (1959), "Tungi chaqmoqlar" kabi qissalari esa adib-

ning yetuk shoirgina emas, mohir nosir ham ekanligini ko'rsatadi. Ayniqsa, uning arab dunyosiga bag'ishlangan turkum hikoya va qissalari adibning nasriy iste'dodi katta imkoniyatga ega ekanligidan darak beradi. Mirmuhsin keyinchalik xalqaro mavzuda "Chodrali ayol" qissasini ham yaratdi.

Mirmuhsin mohir romannavis sifatida ham ijod qilib keldi. Uning tarixiy mavzuda yaratilgan "Me'mor" (1974), "Temur Malik", "Turon malikasi" (1997) kabi ajoyib epik polotnolari adabiy jamoatchilik e'tirofiga sazovar bo'lgan. Shuningdek, Mirmuhsin zamonaviy mavzularda ham qator romanlar yaratdi. Uning "Umid" (1969), "Chiniqish" (1970), "Degrez o'g'li" (1972), "Chotqol yo'lbarisi", "Ildizlar va yaproqlar", "Ilon o'chi" (1995) singari romanlari zamon va zamondoshlar hayotidan hikoya qiladi. Ayniqsa, adibning "Umid" romani qizg'in bahslarga sabab bo'lgan. Unda yoshlar taqdiri, baxti va fojiasi o'zining aniq ifodasini topgan.

Mirmuhsinning dastlabki asarlari 1938 yida bosilib chiqqan edi. Shundan keyingi uzoq yillik ijodiy faoliyat mobaynida yozuvchining ko'pgina she'riy to'plamlari, dostonlari, hikoya, qissa va romanlari bosilib chiqdi, ularning ayrimlari rus va boshqa xorijiy tillarga tarjima qilindi. Adib asarlari orasida, ayniqsa, zamonaviy mavzudagi "Umid" va tarixiy mavzudagi "Me'mor" romanlari o'zbek adabiyoti tarixida alohida o'rin tutadi.

Mirmuhsin mohir tarjimon sifatida ham faoliyat ko'rsatib, A. Pushkin, T. Shevchenko, A. Nitskeyvich, Ya. Kolas va boshqa shoirlarning she'rlarini o'zbek tiliga tarjima qildi.

Mirmuhsinning adabiyotimizni rivojlantirish yo'lidagi ko'p yillik xizmatlari munosib taqdirlangan. U "O'zbekiston xalq yozuvchisi" va "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi" faxriy unvonlari sohibi edi. 1998 yilda adib "El-yurt xurmati" ordeniga sazovor bo'lgan edi.

Atoqli yozuvchi, ulkan romannavis, taniqli shoir va tarjimon, tajribali muharrir Mirmuhsinning nomi va asarlari xalqimiz qalbida hamisha yashab qoladi.

Mirmuhsin adabiyotimizning o'tgan asr o'rtalaridan boshlab "o'rta avlod" yozuvchilar sulolasining vakilidir. Shuhrat, Turob To'la, Said Ahmad, Asqad Muhtor, Ramz Bobojon, Shu krullo kabi o'nlab qalam sohiblari ijodlarini o'ttizinchi yillarning o'rtalaridan–fashizimga qarshi urush arafasidan boshlab, asr oxirigacha davom ettirib keldilar va bular orasida Alloh umr berganlari hozirgi istiqlol davrida ham davom ettirmoqda. Mirmuhsin yarim asrdan ortiqroq davr davomida barakali qalam tebratdi. Ko'p tengdoshlari qatori, u ham ijodini she'r yozishdan boshlab, keyin nasrga o'tdi: ocherk va hikoyalar yozdi, zamona-viy va tarixiy mavzularda qissalar, romanlar yaratdi. Ayni vaqtda jamoatchilik ishlarida faol qatnashdi. Bizga ma'lumki 2002 yil teleekranda Mirmuhsin ijodi va hayotiga bag'ishlangan "Umr daftari" turkimidan ko'rsatuv efer yuzini ko'rgan edi. O'zbekiston televedenyasining yoshlar kanali betob yotgan keksa adib hayoti va ijodini batafsil ko'rsatib, savob ish qilgan edi.

Mirmuhsin uzoq davom etgan og'ir kasallikdan keyin 84 yoshida olamdan o'tdi. Adibning xonadonidagi ijod xonasini ziyorat qilarkansiz, uning kitob javonlarida sermahsul ijodi-asarlarining jildlari terib qo'yilgan. Bu asarlar umr bo'yi murakkab sharoitlarda davom etgan mashaqqatli ijod mevalaridir.

Adibdan xalqiga meros bo'lib ana shu kitoblar qoldi. Yana nima qoldi? Otasi ketgan poyonsiz yo'lga termulib, farzandlarining yosh to'la ko'zlari qoldi...

Yozuvchining umri u yozgan asarlariga kitobxonning ehtiyoji bilan o'lchanadi. Mirmuhsin ijodini hozirgi avlod ham kelasi avlodlar ham o'qisa arziydigan asarlari bor. Demak, u xalq yuragida odamlar xotirasida yashab qoladi.

Xalq bilan hamnafas shoir

Gʻafur Gʻulom Mirmuhsinga atab maqola va katta bir sheʼr yozgan edi. Unda adibning el-yurt oldidagi burchi haqida soʻz boradi, hamisha xalq bilan hamnafas, ijodda halol, rostgoʻy boʻlishga undaydi. Mirmuhsin ustozga javoban yozgan “Qalb va qalam” sheʼrida shoir soʻzi–hamma vaqt yurt uchun xizmat qilmoqlik, sadoqat va halollik oʻzi uchun muqaddas burch ekanligini aytadi.

Bu shunchaki eʼtirof, quruq gap boʻlib qolmadi, bugungi kunda adibimizning qirq besh yillik umri ana shu muqaddas burchni halollik bilan ado etish yoʻlida oʻtdi: qirq besh yillik ijodiy izlanish, zahmat, tinimsiz mehnat samarasi oʻlaroq koʻplab qissalar, dostonlar, hikoya va romanlar maydonga keldi desak mubolagʻa boʻlmaydi.

Mirmuhsin koʻpchilik tengdoshlari kabi badiiy ijodni ham prozada, ham poeziyada barobariga boshlagan: mana, qirq besh yildirki, u har ikki sohada toʻxtovsiz qalam tebratib keldi. Shunday boʻlsa-da, 60-yillarga qadar unda sheʼriyatga mayl ustunroq boʻlgan, oʻsha yillari u asosan shoir sifatida tanilgan; koʻplab sheʼrlar, “Usta Gʻiyos”, “Yashil qishloq”, “Shiroq” kabi oʻndan ortiq poemalari, jumladan, “Ziyod va Adiba” sheʼriy romani oʻsha yillari paydo boʻlgan. 50-yillarning oʻrtalari, 60-yillarga kelib nasriy ijodi oldingi oʻringa oʻta boshladi. Mohir prozaik sifatida tanila bordi, oltita roman, oʻnga yaqin qissa, koʻplab hikoyalar, hajviyalari mana shu yillari yozildi.

Mirmuhsin bora-bora nasr tomon ogʻib ketishining maʼlum sababi bor. Garchi adib sheʼriyatda ham barakali ijod etgan, atoqli rus shoiri Stepan Shchipachyev soʻzlari bilan aytganda, “hamon sheʼriyatning oltin qalamini tark etmay kelayotgan, uning qalami ostida avvalgidek goʻzal satrlar quyilib turgan” boʻlsa-da, sheʼriyatining, poetik tafakkurining oʻzida prozaga moyillik mavjud. Bu hol baʼzilarga erishroq tuyiladi, bunday xususiyat ayrim eʼtirozlarga, bahs larga ham sabab boʻlgan. Bu jihatdan S. Shichipachev soʻzlari xarakterli: “Bir vaqtlar,-deydi

u,-qaysi yil ekani aniq esimda yo‘q. Moskvadagi Adabiyotchilar uyida o‘zbek shoirlarining asarlari, jumladan, Mirmuhsin she‘r-lari muhokama qilingan edi. Yodimda, menga Mirmuhsin ijodining ko‘p jihatlari ma‘qul tushgan edi. Biroq o‘shanda men undagi keragidan ortiq darajada zaminga yaqinlik samarali ekanini, vaqti kelib... shoirni romanlar, povestlar ustida ishlashga olib borishini bilmagan ekan”.

Shoir she‘riyatiga, poetik tafakkuriga xos xislatlar-zaminga yaqinlik, odmilik avvalo uning shaxsiyati, u tug‘ilib o‘sgan oilaviy muhit bilan aloqador. Mirmuhsin tabiatan o‘ta kam-suqum, kamtar, xoksor, zahmatkash odam. U kulol oilasida dunyoga kelgan, G‘afur G‘ulom aytmoqchi umr bo‘yi bir changal loydan-bir burda vatandan ko‘z uzmay o‘tgan mehnatkash otaning farzandi: binobarin koshinpazlik, kulolchilik kasbi, shu kasb egalariga xos odmilik, xoksorlik, mehnatsevarlik uning uchun otameros. Taqdir uning qo‘liga bir changal loy emas, qalam tutqazdi, tabiat unga ajoyib iste‘dod in‘om etdi: ota kabi kulolchilikni emas, badiiy ijod yo‘lini tanladi, shu yo‘ldan borib sotsiologik tuzum sharoitida yetuk shoir, prozaik, ziyoli-tashkilotchi, muharrir bo‘lib yetishadi; lekin kulol ota qonidan o‘tgan o‘sha ezgu xislatlarni-odmilik, kamtarlik, mehnatsevarlik, mehnat ahliga ulkan mehrni to‘laligicha saqlab qoldi.

Shoir tabiatiga xos shu xislatlar hammadan burun uning she‘riyatida, she‘riyatining mavzu-materiali, uslubi-ifoda tarzida ravshan namoyon bo‘la bordi: birinchi galda uni oddiy odamlar turmushi, mehnati, jasorati qiziqtiradi; oddiy zahmatkash odamlar turmushini bo‘yab-bezamay shundog‘icha o‘z ko‘rinishida tabiiy go‘zalligi, dag‘alligi bilan she‘riyatga olib kiradi, uning el og‘ziga tushgan dostonlari qahramonlari-ardoqli kishilari-Do‘nan ham, Usta G‘iyos ham, hattoki, afsonaviy Shiroq ham o‘ta sodda, odmi odamlar; shoir shu soddalik, odmilik zamiridagi ulug‘vorlik, go‘zallik, qahramonlikni ochish payida bo‘ladi. Ayni paytda u uslubda ham soddalikka intiladi, shoir so‘zlari, uning o‘zi e‘tirof etganiday, “ba‘zan yoqavayron,

ba'zan bosh yalang" yana u: "Do'mbiramning pardalari sodda, qoniqmasa do'stlari haqli", deydi. Shu e'tirofning o'zida ham samimiyat, qandaydir sofdillik, kamtarlik bor.

Zaminga yaqinlik, sofdillik, odmilik Mirmuhsinning nasriy asarlarida ham o'ziga xos xususiyat baxsh etadi. Ma'lumki, Mirmuhsin prozada g'ayrat bilan ishga kirishgan 50-yillarda mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-madaniy hayotida jiddiy o'zgarishlar yuz berdi: adabiyot mehnatkash xalqning kundalik turmushiga, uning dardu tashvishlariga yaqinroq bo'lib qoldi, ma'lum vaqtlar jamiyat organizimining "vintcha"lari deb qaralgan oddiy insonga e'tibor kuchaydi, inson so'zi mag'rur jaranglay boshladi.

Mirmuhsinning yangi etapda yaratgan eng yaxshi prozaik asarlari ayrim balandparvoz, hayotni bo'yab-bezab ko'rsatuvchi asarlardan farqliroq, avvalo, zaminga, kundalik turmushga nihoyatda yaqinligi bilan ajralib turadi. Ular oddiy mehnatkash xalq turmushidan olingan, ularda shu oddiy, kamsuqum mehnat ahliga xos ma'naviy fazilatlar ulug'lanadi; eng muhimi, Mirmuhsin qahramonlari beg'am, betashvish kishilar emas, balkim ma'lum insoniy dard bilan nafas oluvchi oddiy odamlar, bu asarlar shu oddiy mehnat ahlining tashvishlariga hamdardlik tuyg'usi, binobarin gumanistik pafos bilan yo'g'rilgan. Muallif zamondosh-vatandoshlari hayotidan so'z ochadimi, xorijiy mamlakatlar-hind, arab va afg'on xalqi turmushini qalamga oladimi, Xorazmninig mungli o'tmishi haqida hikoya qiladimi – hamma hollarda shu muhim fazilatlarni birdek namoyon eta oladi. Mirmuhsinning bu asarlari yana bir bor shundan dalolat beradiki, insonga mehr, chuqur insoniy dard, gumanizim faqat san'at asarining g'oyaviy yo'nalishigagina aloqador bo'lib qolmasdan, uning badiiy ta'sirchanligini oshirishdagi muhim faktorlardan biridir.

"Arab hikoyalari" Mirmuhsin ijodida alohida o'rin tutadi, o'z davrida adabiy tanqidchilikda ta'kidlaganidek, mazkur turkum o'zbek hikoyachiligida muhim hodisa bo'lgan edi.

Ularda Mirmuhsinning nasriy asarlariga xos gumanistik pafos, oddiy zahmatkash kishilar taqdiri bilan astoydil qiziqish, ularga hamdardlik tuygʻusida juda yorqin koʻrindi.

Mirmuhsin 60-yillari ancha vaqt respublika satirik jurnali “Mushtum”ga muharrirlik qildi. Mana shu yillari adib isteʼdodining boshqa bir qirrasini-hajvchilik faoliyati hiyla jonlandi. Mirmuhsin avvallari ham baʼzi hajviy asarlar bitgan edi, sheʼriyatida yumoristik lavhalar uchrab turardi. “Mushtum” muhiti esa undagi hajviy isteʼdodning kengroq namoyon boʻlishiga yoʻl ochdi. Mirmuhsin hajviy asarlarida ham oddiy, kamsuqum mehnat ahli tomonida turib, ular yonini olib, shu oddiy qoʻli qadoq “toʻpori kishilar nigohi bilan hodisaga yondashadi, uning kulgisi ham ayni shu “toʻpori” odamlar kulgisi, oʻta sodda, xaqqil kulgi. Uning ifoda tarzi ham sodda, samimiy.

Mirmuhsin hikoyalar, hajviy asarlar bilan yondosh holda qissa janrida ham qalam tebratdi. Uning qissalari tematik tomondan ham, ifodalangan voqealar davri jihatidan ham rang-barang. “Jamila”da zamondoshlari hayoti aks ettirilsa, “Oq marmar”, “Choʻri” qissalari Xorazmning uqubatli oʻtmishidan bahs etadi, “Tungi chaqmoqlar”ga tarixiy hodisa – Chor Rossiyasi qoʻshinlarining Toshkentga kirib kelishi asos qilib olinsa, “Iskandariya koʻrfazi”, “Moʻtilal”, “Gʻurbatdagi odam” voqealari turli sharq mamlakatlarida boʻlib oʻtadi. “Chodrali ayol”da esa Afgʻoniston yangi tarixining muhim pallasi – 1978 yilgi Aprel inqilobi voqealari qalamga olingan.

Qaysi davr haqida, qanday mavzuda yozilgan boʻlishidan qatʼi nazar Mirmuhsin qissalari ham xuddi sheʼrlari, dostonlari, hikoyalari singari oddiy, kamsuqum kishilar taqdiri bilan astoydil qiziqish, ularning dard-tashvishlariga chin dildan hamdardlik tuygʻusi bilan sugʻorilgan.

Oʻzbek adabiyotida maʼlum sabablarga koʻra uzoq vaqt qissachilik maishiy hayot muammolaridan chetroqda turdi, faqat 50-yillarning oʻrtalariga kelib bu mavzuda jonlanish roʻy berdi.

“Jamila” o‘zbek qissachiligidagi xuddi shu tendensiyaning boshida turgan asarlardan biridir.

Mirmuhsin qissada oilaviy-maishiy turmush ikir-chikrlarini juda yaxshi bilish, ularga yozuvchi ko‘zi bilan qarash, ular tahlidan muhim ma‘no topish mahoratini namoyish etdi. “Jamila”da izchil, hayotiy tasvir etilgan oilaviy-maishiy turmush tasviridan kelib chiqadigan muhim ma‘no shuki, turmush “ikir-chikirlari” shunchaki “mayda masala” bo‘lmay, ular inson taqdiriga kuchli ta‘sir ko‘rsatishi, ba‘zan hayot-mamot masalasi darajasiga borib yetishi mumkin. “Jamila” qissasi yana bir jihatdan ibratli, unda muallif o‘zbek turmushiga uzoq yillar og‘u solib kelgan, hattoki bugungi kunda ham zahri tugab bitmagan, ayrim odamlar ongida saqlab kelayotgan mutelik, tobelik, itoatkorlik psixologiyasi ustida jiddiy bahs qo‘zg‘aydi, shu xil kayfiyatning ko‘ngilsiz oqibatlarini ko‘rsatadi.

Mirmuhsin she‘riyati, hikoya va qissalari ustida ham tortishuvlar bo‘lgan, biroq eng qizg‘in bahs-munozaralar uning romanlari tevaragida ketgan. Mirmuhsin roman tomon uzoq mashaqqatli yo‘lni bosib o‘tdi. U ijodining boshidayoq bu janrga murojaat etgan, urushdan oldin bir fantastik roman yozgan edi, asar mashq bo‘lib, nashrdan chiqmagan. So‘ng 50-yillari “Ziyod va Adiba” ustida ish olib bordi, bu o‘zbek adabiyotida ilk she‘riy romandir. Hikoya, hajviya, qissa janrlaridagi ko‘p yillik mehnat, ma‘lum muvaffaqiyat, qolaversa yig‘ilgan boy hayotiy tajriba adibni yana roman tomon yetakladi, 60-yillarning boshlarida “Chiniqish” romanini yaratdi. Ma‘lumki, romanning janr xususiyati avvalo qahramon bilan uni qurshab olgan muhit, sharoit orasidagi munosabat ko‘lamiga qarab belgilanadi. “Chiniqish”dagi ana shunday munosabat ko‘lami hali roman imkoniyatlari darajasida emas, infantilizm kasaliga mubtalo bo‘lib qolgan bir yigitning katta hayot yo‘liga chiqib olish torroq doirada ifoda etiladi; buning ustiga bosh qahramon Alijonni yo‘ldan ozdirgan, yo‘liga g‘ov bo‘lgan hayotiy omillar chuqur, atroflicha badiiy

tahlil etil- magan, bu holatni shu romanni o‘qib chiqqan kitobxon sezgan bo‘lsa ajabmas.

Galdagi asari “Umid” yozuvchi uchun roman janri “sirlari”ni, romanchilik mahoratini egallash yo‘lida olg‘a tashlangan qadam bo‘ldi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bu asar kitobxonlar tomonidan juda yaxshi qabul qilingan. Muallif benihoya ko‘p xatlar olgan. Tanqidchilar orasida ham, yozuvchining qalamkash do‘stlari davrasida ham katta qiziqish uyg‘otgan edi. Roman ko‘p o‘tmay rus tiliga tarjima qilindi. “Noviy mir”, “Literaturnoe obozrenie”, “Literaturnaya gazeta” sahifalarida ijobiy baho oldi, 1974 yil Hamza nomidagi O‘zbekiston Davlat mukofoti bilan taqdirlandi. Ijodkor adibimiz bu yutiqlar bilan chegaralanib qolmasdan ijodga yanada kuch g‘ayrat bilan ko‘pgina qissa, hikoya, roman, she‘riy to‘plamlar yaratdi.

O‘zbekiston xalq shoiri Mirmuhsin haqida

Mirmuhsin vatan tuprog‘in tarannum etadi. U zaminni: “Onamiz, qismatimiz, taqdirimiz va ishimiz deb aytadi. Zamin ham bu muhabbatga muhabbat bilan javob beradi.

Nikolay Tixonov

...Suyanguday tog‘larim bor deya quvonaman. Davomi bor deb qalbinga tasalli beraman. Shu sog‘lom ijodiy pleyadaning po‘lat zanjirday mustahkam silsilasida bir ko‘zanak bo‘lib shoir Mirmuhsin turadi.

G‘afur G‘ulom

Mirmuhsinning “Usta G‘iyos” dostoni o‘zbek poeziyasining talantli asarlaridan biridir.

Oybek

Mirmuhsin hozirgi zamon o‘zbek adabiyotida ko‘zga ko‘rinarli o‘rin egallaydi, haqli ravishda uni oldingi safdagi ilg‘or vakillardan biri hisoblanadi. U dunyoni o‘zicha ko‘radi, o‘ziga xos uslubga ega bo‘lgan betakror xati bor.

Uyg‘un

Bu hikoyani (“Dorbozlar”) o‘qib chiqqanimdan keyin, gapning to‘g‘risi, Mirmuhsinga havasim keldi. Unda men xalq

turmushining bir butun kartinasini ko'rdim, cholning og'ir tashvishiga guvoh bo'ldim...

“Dorbozlar”, -chinakam manaman degan hikoya!

Georgiy Gulia

Mirmuhsinni akvarel bo'yoqlar bilan lavhalar chizib berolgan shoir sifatida ko'rish menga juda yoqadi. Bu lavhalar bizga uzumzorlari, kumush buloqlari, quyosh haroratiga to'liq saxiy qalbi bilan kishilarga quchoq ochuvchi O'zbekiston manzaralarini aks ettiradi.

Sergey Smirnov

...Mana necha-necha yildirki, har masalada zamon, partiya va xalqimizning badiiy talablariga hozir javob bo'lib kelayotgan atoqli yozuvchimiz Mirmuhsin adabiyotimizga yangi mavzu, yangi obrazlar, yangi ajoyib asar olib keldi...U (“Me'mor”) ko'p shaxobchali, murakkab syujetli, o'tkir konfliktli, umuman, aksar jihatdan serqirrali va rang-barang monumental asardir, nihoyat darajada murakkab va dahshatli yillarni o'z ichiga olgan butun bir davrning badiiy qomusidir, undagi moddiy va ma'naviy boyliklar yaratgan va hokim zulmiga qarshi kurashgan xalq ommasining epopeyasidir.

Vohid Zohidov

Mirmuhsinning she'rlari meni juda quvontiradi. Uning yangi kitobi (“Lirik misralar”) o'zbek poeziyasidagi dadil, shoirning diapazoni kengligidan darak beradi. Bu juda ham muhimdir.

Vatsis Reymeris

*Yodimiz sizga ey, qalam sohibi,
Xotirangiz o'chmas hamon!
Sakson besh yilligingiz
Qutlar behad kitobxon.*

*Siz “Umid” li san'atkor
“Usta G'iyosdan” mohir.*

*Oddiy kulol farzandi,
Muharrir yetuk shoir.*

*“Nizomiy” bo‘stonida
Ilm gulin tergansiz.
So‘z durlarini sochib,
Dilga oro bergansiz.*

*She’ru dostonlaringiz,
Kitobxon xalqqa manzur.
Barcha qardosh tillarda,
Nazmu nasringiz mashhur.*

(Qisqartirib olindi)

Muhammad Ismoilov

Mirmuhsinning adiblar haqidagi qatralaridan namunalar

Shoir ilgari ham ko‘p bo‘lgan, hozir ham ko‘p va bundan keyin ham ko‘p bo‘ladi. Lekin xalqi dilidagini topib kuylay olganlar o‘lmaydi.

Yuragi kir qalamkashning hammani hayajonga soluvchi kitob yozib berishiga ishonib bo‘lmaydi. Bunday qalamkash azada ko‘ziga tupuk surtib yig‘lagan xotinni eslatadi.

Bir shogird ustozidan dars olardi-yu, ustozining raqiblarga ro‘baro‘ bo‘lganda hamma vaqt o‘zini chetga tortardi. Ustoz taajjublanar, lekin miq etmasdi. Bu shogirdni echkiemarga o‘xshatish mumkin. Echkiemar cho‘pon uxlaganda govmushdan sut emib ketadi. Ammo ustoz keyinchalik o‘zining yaxshi ustoz emasligini payqadi. U shogirdining yuzini ko‘ribdi-yu, yuragini ko‘ra olmabdi.

Xiyla o‘ziga bino qo‘ygan, silliq bir shoir tarjimonlik qilib, buyuk shoirni o‘ldirdi. Yo‘lning ketiga tushishning oqibati bu!

Sichqon filga tikilib turib, sen mening uzoq ajdodimsan, sen bilan faxrlanaman, degan ekan.

O‘z xalqi vatandoshi diliga tushib, uning bag‘rida unib mashhur bo‘lmagan adibning Avstraliyada mashhur bo‘lishining hech ahamiyati yoq.

Bir adabiy tanqidchi “Shiroq” dostonimni o‘qib chiqib, savol berdi:

-Siz esdan chiqib ketayotgan, ikki ming yil ilgari bo‘lgan qahramonlikni yozib nima demoqchisiz?

-Ikki ming yilga yetib kelgan bu qahramonlik yana ikki ming yilga yetib boradi, demoqchiman,- deb javob berdim.

Mirmuhsinning “Umid” romani bo‘yicha kitobxonlar konferensiyasini o‘tkazish yo‘l-yo‘rig‘i

Ushbu asar bo‘yicha kitobxonlar konferensiyasini o‘tkazish katta tayyorgarlik ishlarini talab qiladi. Konferensiyani o‘tkazish uchun tayyorgarlik ishlari 1-2 oy oldin boshlanadi. Buning uchun kutubxonaga, tashkilot, jamoa, uyushma, muassasalarga, maktab, kollej, litsey, oliy o‘quv yurtlariga e‘lon yozilib, ishtirok etuvchi kitobxonlarga taklifnomalar yuboriladi. Mahalliy matbuot, radio va televidenie orqali o‘tkaziladigan konferensiya to‘g‘risida xabar berilishi unda ko‘pchilikning ishtirok etishini ta‘minlaydi. Konferensiya uchun auditoriya talab bezatiladi. Mirmuhsinning hayoti va ijodiga bag‘ishlangan kitob ko‘rgazmasi tashkil qilinadi. Kitob ko‘rgazmasidagi adabiyotlardan obzor o‘tkazish maqsadga muvofiqdir. Konferensiya o‘tkaziladigan joyda Mirmuhsin portretini qo‘yish mumkin. Konferensiyani kutubxonachi yoki faol kitobxonlardan biri olib borishi mumkin. Konferensiya davomida kitobxonlardan va ishtirokchilardan asar haqida savollar va o‘z fikr-mulohazalarini bildirishlari so‘raladi.

Shuningdek, “Umid” romani asosida biron bir sahna ko‘rinishining senariysi tuzilib ishtirokchilar hukmiga havola qilinsa konferensiya yanada qiziqarli o‘tadi. Konferensiyaning yanada qiziqarli o‘tishi uchun “Umid” romanini tarjima qilgan tarjimonlarni, agar hayot bo‘lsa, bu asar yuzasidan va adib to‘g‘risida

tadqiqot ishlarini olib borgan va borayotgan tadqiqotchilarni, faylasuf, adabiyotshunos, yozuvchi va shoirlar, jurnalistlar adabiyot o'qituvchilarini, san'atkorlarni taklif qilish mumkin.

“Umid” romanining qisqacha mazmuni

“Umid” romani Mirmuhsinning romanlari orasida alohida ajralib turadi. Yozuvchining qator qissa va hikoyalaridagi yetakchi qahramonlar kabi “Umid” romanining bosh qahramoni Umidning ham boshidan ko'p og'ir savdolar kechgan, ma'lum insoniy dard bilan nafas oluvchi shaxs. Roman Umidning eng baxtli damlari hikoyasidan boshlanadi. U institutni tugatib katta ilmiy dargohga-seleksiya va urug'chilik institutiga yo'llanma olgan, uni ishda xush qabul qiladilar: Umid ishq o'tida mast, alomat qiz Hafizaning sevgisini qozongan. Ko'pincha zul matdan yorug'likka chiqqan odamning ko'zi ancha vaqt qamashib turadi, yorug'likdagi ashyo, harakatlarni yaxshi ajrata olmaydi. Xuddi shuningdek, bolaligi g'urbat va mashaqqatda kechgan Umid dastlabki omad va quvonchlar oldida entikib gangib qoladi. Ishda, ilmda Salimxon Obidiyga shogird tushadi, bu makkor shaxs iste'dodli yigit Umidga ko'p iltifot ko'rsatadi, oilasi bilan tanishtiradi. Shirin so'zga, mehrga, iltifotga tashna Umid katta olim “himmati”, Obidiy xotini Sunbilxonning shirin so'zi, “onalik mehri”, qizi Jannaning iliq muomalasi qarshisida o'zini yo'qotib qo'yadi. Umid anoyi emas, undagi vijdon, adolat tuyg'usi so'nib bitgan emas. U nojo'ya ish qilayotganini, mustaqilligini yo'qotib, Obidiyning shunchaki dastyoriga aylanib qolayotganini biladi, his qiladi, lekin Obidiyning cheksiz iltifoti, oilada unga ko'rsatilgan hurmat-ehtirom yigitdagi muqaddas tuyg'ular harakatini tizginlab qo'yadi; Janna bilan yaqinlashuv ilk sevgi-Hafiza oldida xiyonat ekanligini biladi, ammo Obidiy oilasi muhitidagi girdob harakatiga beixtiyor o'zini qo'yib beradi. Hayotdagi ilk omad, Salimxon Obidiy oilasidagi muhit

ta'sirida Umid ongiga qandaydir xudbinlik, shuhratparastlik, bevafoqlik, kelishuvchanlik hislari ham aralashib qoladi. Mana shu his uni tubanliklar, baxtsizliklar sari yetaklaydi.

Yozuvchi qahramonning ana shu murakkab muhit, chigal vaziyatdagi ruhiy holatini, Umidni jinoyat va xiyonatga boshlagan omillarni, eng muhimi Umid ruhiyatidagi ziddiyatli jarayonlarni ancha chuqur, ta'sirchan ifoda etadi. Ro'y bergan ko'ngilsiz hodisa uchun avvalo Umid aybdor, buning uchun u munosib "jazolanadi", azob-iztirobda qoladi; buni ko'rgan kitobxon Umiddan koyinadi, ayni paytda unga achinadi, dardiga, azobiga sherik tutinadi; chunki soddadil yigitni chalg'itgan, yo'ldan ozdirgan odamlar bor, asarni o'qigan Salimxon Obidiylar muhitiga nisbatan kitobxonda tug'ilgan munosabat-nafrat Umid gunohini ma'lum darajada yengillashtiradi, kitobxonni unga bo'lgan xayrixohligini oshiradi.

Asar muhokamasi uchun taxminiy savollar

1. Muallif "Umid" romanini yaratishda qaysi yozuvchilarning asarlari bilan tanishib chiqqan?

2. Adib Umid obrazini boshidan ko'p og'ir savdolar kechgan, ma'lum insoniy dard bilan nafas oluvchi shaxs qilib gavdalantirgan, asardan bosh qahramon obraziga bir misol keltiring?

3. Romanda professor Salimxon Obidiyning qizi, sho'x-shaddod Jannatxon obrazi mavjud. Shu obraz haqida gapirib bering?

4. Romanning badiiy va tarbiyaviy ahamiyati haqida so'zlab bering?

5. Asarda Umidning onasidek bo'lib ketgan Co'tir xola obrazi ham mavjud. Shu obraz haqida sizning fikringiz?

6. Roman nashrdan chiqqach ko'p o'tmay rus tiliga tarjima qilinib qaysi gazetalar sahifasida o'rin egalladi?

7. Adib "Umid" romani uchun 1974 yil qanday mukofat bilan taqdirlangan?

Mirmuhsin she'riyati

1. Shoir she'rlarida tabiiylik, fikr rivojligi va musiqiylikning ufurib turishi nimada?
2. Shoir she'rlarida tuyg'ularimizni uyg'otuvchi, yurakni titratuvchi qudrat bor, buning sababi nimada deb bilasiz?
3. Shoir she'rlarida tabiat hodisasining inson ruhiyati bilan bog'liqlik sababi nima deb o'ylaysiz?
4. Shoir she'rlarida milliy joziba nimalardan iborat?
5. Shoir she'riyati, poetik tafakkurga xos xislatlar, zamanga yaqinlik, odmilik avvalo uning shaxsiyati, u tug'ilib o'sgan muhit bilan aloqadorligi to'g'risida fikringiz?
6. Shoir o'z ijodini "ba'zan yoqavayron, ba'zan bosh yalang", yana u "Do'mbiramning pardalari sodda, qoniqmasa do'stlarim haqli" deydi. Shu e'tiroflarga sizning munosabatingiz.

Mirmuhsin hayoti va faoliyati hamda u haqidagi manbalarni bilasizmi?

Bilimdonlar bellashuvini tashkil qilishga tavsiyalar

Bellashuv o'tkazishdan oldin kitobxonlardan 6-8 kishidan iborat 2 ta bilimdonlar guruhi tuziladi. Ularga asosan maktab, litsey, kollej o'quvchilari, talabalar, magistrilar va aspirantlar kiritilishi mumkin. Bellashuv tashkilotchilari bilimdonlarga beriladigan savollarni tuzib chiqadilar. So'ngra shu savollardan ayrimlari tanlab har ikki guruhga mo'ljallab qo'yiladi. Kutubxonada beriladigan savollarga doir adabiyotlar tayyor turishi kerak. Bellashuvga tayyorlanish jarayonida qatnashuvchilar o'sha adabiyotlarni puxta o'qib chiqishlari zarur.

Bilimdonlarning e'tiborini adibning alohida nashrlariga, u haqdagi nashrlarga qaratish kerak. Bellashuv o'tkaziladigan joyda Mirmuhsinning hayoti va faoliyatini aks ettiruvchi kitob-suratli ko'rgazmani tashkil etishni tavsiya qilamiz.

Bellashuvga qo'yiladigan savollardan namunalar keltiramiz.

1. Mirmuhsin qachon va qayerda tavallud topgan?

(Mirmuhsin Mirsaidov 1921 yil 3 mayda Toshkent sahrida hunarmand oilasida dunyoga kelgan).

2. Mirmuhsin qaysi yillari Respublika radio qo‘mitasida muharrirlik qilgan?

(Mirmuhsin Respublika radio qo‘mitasida 1942-1944 yillari muharrirlik qilgan).

3. Mirmuhsinning qanday qissalarini bilasiz?

(Adibning “Jamila”, “Chodrali ayol”, Cho‘ri”, “Oq marmar”, “Mo‘tilal” kabi qissalar).

4. Mirmuhsinning qanday romanlarini bilasiz?

(Mirmuhsin qissa, hikoya, she‘rlar bilan birgalikda uning “Me‘mor”, “Ziyod va Adiba”, “Umid”, “Degrez o‘g‘li”, “Chiniqish” va shu kabilardir.

5. Quyida keltirilgan parcha shoirning qaysi she‘ridan olingan?

*Yillar yoshingizni yetaklab ketmish,
Ne chora, umr nahrin to‘xtatib bo‘lmas.
Qaytib kelmas ekan u shirin o‘tmish,
Lekin sevgi guli hech qachon so‘lmas.*

(Mirmuhsinning “O‘zbek go‘zali” nomli she‘ridan olingan).

6. Ushbu keltirilgan parcha shoirning qaysi she‘ridan olingan?

*O‘zbekiston yurtim, sharqli pahlavon-
O‘tmishda xor eding, siynang dilpora.
Taningni chirmoviq kabi o‘ragan
Qullik zanjirlarin qilding chilpora.*

(Ushbu she‘r Mirmuhsinning “O‘zbekiston” she‘ridan olingan).

7. Mirmuhsinning qanday hikoyalarini bilasiz?

(Adibning “Arab hikoyalari”, “Podachi”, “Botinkasiz tovuqlar”, “Dorboz” kabi hikoyalari).

8. Adibning qaysi qissalari Xorazmning uqubatli o‘tmishini bahs etadi?

(Adibning “Oq marmar” va “Cho‘ri” qissalari Xorazmning uqubatli o‘tmishini bahs etgan).

9. Mirmuhsin “Tungi chaqmoqlar” qissasida qaysi tarixiy hodisani asos qilib olgan?

(Adib “Tungi chaqmoqlar” qissasida Chor Rossiyasining Toshkentga bosqinchilik harakatini asos qilib olgan).

10. Adibning qaysi qissasida Afg‘oniston yangi tarixining muhim pallasi-1978 yilgi aprel inqilobi voqealari aks etgan?

(Adibning “Chodrali ayol” qissasida Afg‘oniston yangi tarixining muhim pallasi – 1978 yilgi aprel inqilobi voqealari aks etgan).

11. Quyida keltirilgan parcha Mirmuhsinning qaysi she‘ridan olingan va she‘rni davom ettiring?

*Aglu mehnati-la buyukdir inson,
Olis yulduzlarga yetdi qulochi.
Mehnat qil el uchun toki tiriksan,
Insoniy kamtarlik-mardlikning toji.*

(Yuqorida keltirilgan parcha, uning “Inson” she‘ridan olingan. Uning davomi quyidagicha:

*Gavhar tuproqda ham, qumda ham gavhar,
Gavhar bo‘lsa qalbing, demak elga baxt.
Kinxoblar shart emas, oddiy choponda ham
Inson buyukligi yoqolmas hech vaqt.*

12. Quyida keltirilgan parcha adibning qaysi balladasidan olingan?

*Bir qiz yolg‘iz olma tagida
O‘tirardi xayolga cho‘mib,
Goh sochin o‘ynab, ohista
Qo‘shiq aytar edi sevinib.*

(Yuqorida keltirilgan parcha, uning “Qizil olma” balladasidan olingan).

13. Ushbu keltirilgan parcha adibning qaysi nasriy she‘ridan olingan?

“Inson qo‘li tok zangiday beo‘xshov. Barmoqlar pastu baland, barmoqlarda qadoqlar. Kaftda qancha chiziqlaru bo‘rtib chiqqan ko‘k tomirlar, tirnoqlar...”

Lekin u tok zangi kabi samarasi beqiyos. Bu beo‘xshov barmoqlardan unar nozu ne‘matlar.

(Ushbu parcha Mirmuhsinning “Inson qo‘li” nasriy she‘ridan olingan).

14. Quyida keltirilgan parcha adibning qaysi hikoyasidan olingan?

...Bu dunyoda o‘zi yolg‘iz qolgandek tuyuldi. Ammo qani uning oyijonisi? Qayoqqa ketdi? Qachon qaytib keladi? Muncha uni sog‘intirmasa? Oyijonisi shu karovotda kasal yotganda, uning boshini silab turib aytgan so‘zlari yodiga tushdi:

-Erkinjon, meni sog‘inganingda qabrimga gul olib borib qo‘ygin. Men seni juda ham ko‘rgim keladi. Gul olib kelib qo‘ysang men seni ko‘rgandek bo‘laman. Katta yigit bo‘lib uylansang, albatta xotining bilan birga kelgin. Men seni juda ham ko‘rgim keladi, tushindingmi:

Erkin o‘shanda bosh qimirlatib tushunganini bildirgan edi...

(Yuqorida keltirilgan parcha, Mirmuhsinning “Sog‘inch” hikoyasidan olingan).

15. *G‘uldiragan sovuq tovush Mirxaydarni uyg‘otib yubordi. U ko‘zlarini katta ochib, tepaga-qo‘ng‘ir gardishga qaradi: hali yorishmabdi... Shu lahza ovoz chiqdi:*

-Kulo-o-ol, uyg‘oqmise-ez: Uyg‘oq bo‘lsangiz turing, yuqorida Boytevat ko‘rindi. Ana eshitayapsizmi, kelyapti: tong otganga o‘xshaydi...

Yuqorida keltirilgan parcha Mirmuhsinning qaysi hikoyasidan olingan?

(Ushbu parcha Mirmuhsinning “Tungi chaqmoqlar” hikoyasidan olingan).

16. Quyida keltirilgan parcha Mirmuhsinning qaysi she‘riy romanidan olingan?

*Ziyod ko'z ochganda
Sanbatda ko'rdi o'zin.
Bir zo'r og'riq tanida,
Bintlar o'ragan yuzin.
Ikki biqin lovillab
Yonar u, chiday olmas.*

(Ushbu she'riy parcha Mirmuhsinning "Ziyod va Adiba" nomli she'riy romanidan olingan).

17. Quyida keltirilgan parcha Mirmuhsinning qaysi romanidan olingan?

... Odamlar har xil, dedi u o'ziga-o'zi seleksiya institutidagi kishilarni ko'z oldiga keltirib: professor Salimxon Obidiy paxtadan ko'ra ko'proq mol-mulkni gapiradi. O'zining qimmatbaho narsalari bilan faxrlanadi. Qiziq bu odam darhaqiqat bir fan doktori sifatida seleksyada ancha katta ishlar qilgan...

(Ushbu parcha Mirmuhsinning "Umid" romanidan olingan).

18. Mirmuhsinning qaysi romanida Arslon ismli yigit bosh qahramon sifatida gavdalanadi?

(Mirmuhsinning "Degrez o'g'li" romanida Arslon bosh qahramon sifatida gavdalanadi).

19. Mirmuhsin "Me'mor" romanida tarixiy shaxslarning qaysi jihatini me'mor timsolida ko'rsatgan?

(Yozuvchi me'mor Najmiddin Buxoriy timsolida tarixiy shaxslarning xislatlarini, mashaqqatli qismatini ko'rsatgan).

20. Mirmuhsinning "Chotqol yo'lbarisi" romanida bosh qahramon kim va u orqali nimalarni ko'rsatmoqchi bo'ldi?

(Adib "Chotqol yo'lbarisi" romanida Qorajonni bosh qahramon qilib avvalgi romanlaridan farqli o'laroq katta hayot tajribasiga ega 40 yoshlik qahramonning kechinmalari, ikkinchi muhabbatning quvonch va iztiroblari, muommolari tahlilini ko'rish mumkin).

21. *Umr bo'yi bir changal loydan-bir burda vatandan ko'z uzmay o'tgan mehnatkash otaning farzandi: binobarin koshinpazlik, kulolchilik kasbi, shu kasb egalariga xos odmilik, xokisorlik, mehnatsevarlik uning uchun ota meros. Taqdir uning qo'liga bir changal loy emas, qalam tutqazdi, tabiat unga ajoyib iste'dod in'om etdi.*

Ushbu tarif kim haqida va qaysi adibimizning qalamiga mansub?

(Ushbu ta'rif Mirmuhsin haqida yozilgan bo'lib adibimiz G'afur G'ulom qalamiga mansub).

22. *"Bir vaqtlar qaysi yil ekani aniq esimda yo'q. Moskvadagi Adabiyotchilar uyida o'zbek shoirlarining asarlari, jumladan Mirmuhsin she'rlari muhokama qilingan edi. Yodimda, menga Mirmuhsin ijodining ko'p jihatlari ma'qul tushgan edi. Biroq o'shanda men undagi keragidan ortiq darajada zamanga yaqinlikdan koyingan edim. Men o'sha paytlari bu xildagi zaminlik samarali ekanini, vaqti kelib... shoirni romanlar, povestlar ustida ishlashga olib borishini bilmagan ekanman".*

Ushbu tarif qaysi rus adibining qalamiga mansub?

(Ushbu so'zlar o'zbek adibi Mirmuhsin haqida bo'lib rus adibi Stepan Shchipachev qalamiga mansub).

23. Mirmuhsin tarjimasiga oid "Mixlar balladasi" qaysi rus adibining qalamiga mansub?

(Mirmuhsin tarjimasiga oid "Mixlar balladasi" rus adibi N. Tixanov qalamiga mansub).

24. Mirmuhsin qaysi jurnallarda bosh muharrirlik lavozimida ish olib borgan?

(Mirmuhsin "Sharq yulduzi", "Mushtum", "Guliston" jurnallarida bosh muharrir bo'lib ishlagan).

25. Mirmuhsin ijodini qaysi yillari boshlagan va dastlabki she'r va hikoyalari to'plamining nomini ayting?

(Adibning ijodi 30-yillardan boshlangan bo'lib, dastlab "Sherlarning mardligi", "Ovchi bolalar" (1936) kabi she'r va hikoyalar to'plamlari chop etilgan).

26. Mirmuhsin dostonnavis sifatida ham tanilgan. Siz uning qaysi dostonlarini bilasiz va ularning nomini aytib o‘t-ing?

(Mirmuhsin dostonnavis sifatida ham tanildi. Uning “Usta G‘iyos”, “Do‘nan” (1947), “Yashil qishloq”, “Qadrdonlar” (1954), “Shiroq” va “Nevara” kabi dostonlari chop etilgan).

Bellashuvning yakunini maxsus hakamlar ma’lum ball qo‘yish bilan yakunlaydilar. Bunda javoblarning to‘g‘riligi, ularning qisqa va batafsilligi ham e’tiborga olinadi. Hakamlar hay’atiga adabiyot o‘qituvchilari, adabiyotshunoslar, yozuvchilar, shoirlar, jurnalistlar, shuningdek adabiyot bilimdonlari taklif etiladi. Sovg‘a tariqasida kitoblar, gullar va esdaliklar topshirish mumkin.

Bahru-bayt bellashuvini tashkil qilish uchun tavsiyalar

Tanlovning maqsadi, kitobxonlarni shoirning Vatan, ona, O‘zbekiston, gullar, tabiat manzaralari, fasllar, sevgi muhabbat, yoshlik va go‘zallik, yor, shoirlarga va boshqa mavzularga bag‘ishlab yozilgan she’rlarni yuqori o‘qilishi orqali qiziqishlarini oshirishdan iborat.

Bellashuvni o‘tkazishdan oldin faol kitobxonlardan 6 kishidan iborat guruh tuziladi. Guruhga maktab, litsey, kollej o‘quvchilari, talabalar va kitobxonlar kiritilishi mumkin.

Bellashuv tashkilotchilari qatnashuvchilarga beriladigan shartlarni tuzib chiqadilar, so‘ngra har bir qatnashuvchiga raqm beriladi. Bellashuv qatnashuvchilari har bir aytmoqchi bo‘lgan she’rining mavzusini, agar imkon bo‘lsa qachon yozilganinini bilishi shart. Bellashuv qatnashchilar navbat bilan she’rning oxirgi harfidan she’r aytishni davom ettiradi. Aytilgan she’r boshqa ishtirokchi tomonidan takrorlanmasligi kerak, agar ishtirokchi 30 soniyada she’rni davom ettirolmasa o‘sha ishtirokchi bellashuvni tark etadi.

Bellashuv o‘tkaziladigan joyda kitob ko‘rgazmasini tashkil qilish maqsadga muvofiq.

Bellashuvda aytiladigan she'rlardan namunalar keltiramiz.

1-raqamdagi qatnashuvchi: “Qaldirg‘och uchib kelgach” she’ri, 1959 yilda yozilgan.

*Qaldirg‘och uchib kelgach, bahor kiribdi deymiz,
O‘riklar gullaganda bo‘lmas nogahon qorlar.
Inson uchdi fazoga, hayratlandi shunqorlar,
Pastda kurra-globus, tariqcha tog‘u dengiz...*

2-raqamdagi qatnashuvchi: “Ustod Sadridin Ayniy bilan uchrashuv” she’ri 1956 yilda yozilgan.

*Ziyoratga keldik, ustod bu sahar
Asarlaringizdan mamlakat obod.
U o‘tirar o‘ychan, keksa alloma,
Yigirmanchi asr Sa‘diy, Hofiziy...
O‘ng qo‘lim ko‘ksimda, ustodga ta‘zim!
Ko‘zlarimda yuzi, yurakda so‘zi.*

3-raqamdagi qatnashuvchi: “Muallimimga” she’ri 1955 yilda yozilgan.

*Ismi sharifingiz har mahal jonda,
Birgasiz biz bilan har vaqt o‘zingiz.
Balog‘at kamarin taqquncha farzand
Ota saqoliga inar oq qirov.
Qanotlandi fikr siz bergan fandan,
Bizlar parvoz etdik, to‘solmas hech g‘ov!*

4-raqamdagi qatnashuvchi: “Vaqt o‘g‘risi” she’ri 1963 yilda yozilgan.

*Vaqt oqar suvdirki, qaytmaydi aslo!
Umr degan narsa berilgan bir bor,
Ezmalik o‘pqondir, balki katta g‘or...
Vaqtни shimib, qilar yer qa‘riga jo.
Vaqtни o‘g‘irlamoq-baxt o‘g‘irlamoq!
Eshmat bitta emas, eshmatlar aro.*

5-raqamdagi qatnashuvchi: “Abadiylik” she’ri 1963 yilda yozilgan.

*Odamiylik, mehnat yo‘lidan ozma,
Mehnat u-mangulik baxt qilar in’om.
Shuxratga berilib qurilgan haykal
O‘zi bilan birga cho‘kar va nurar...
Marmardan ko‘tarib, berib biz sayqal,
Ustozga sayqal qurdik, ming yillar turar.*

6-raqamdagi qatnashuvchi: “Royal” she’ri 1940 yida yozilgan.

*“Royal” yonidaman, ohang oqadi...
Dam bo‘ronday hayqirar, toshar,
Dam yurakni nozik qitiqlaydi,
Dam ipakday tovlanar, yumshar...
Chalgil do‘stim, chal royalingni!
Torlar tilga kirsin, sayrasin!*

Bellashuv 3 yoki 4 bosqichdan iborat bo‘lishi mumkin, har bir bosqichda baholanib boriladi.

Hakamlar tomonidan ixtiyoriy ravishda bitta shart ham qo‘shilishi mumkin. Bunda ma’lum bir she’rdan parcha o‘qilib, davom ettirilishi so‘ralishi mumkin.

Bellashuv yakunini hakamlar ma’lum ball qo‘yish bilan yakunlaydilar. Bunda she’rlarning ma’no va mazmuni, aytuvchining ijrochilik mahorati ham e’tiborga olinadi.

Hakamlar hay’atiga adabiyot o‘qituvchilari, yozuvchi va shoirlar, jurnalistlar, aktyorlar taklif etiladi. G‘oliblarni sovg‘alar bilan taqdirlash tavsiya etiladi. Sovg‘a tariqasida kitoblar, gullar va esdaliklar topshirish mumkin. Homiy tashkilotlat bo‘lsa imkoniyatga qarab kattaroq sovg‘a-salomlar berilishi mumkin.

“Qalb va qalam” mavzusidagi bellashuv

SENARIYSI

Bellashuv kutubxonada o‘tkaziladi. Kirishda “Qalb va qalam sohibi”, “Mirmuhsin ijodi” sarlavhalari ostida kitob ko‘rgazmalar tashkil etiladi. Unda adibning asarlari, gazeta jurnal maqolalarini qo‘yish mumkin.

Barcha ishtirokchilar taklif etilib mehmonlar o‘z joylarini egallaganlaridan so‘ng boshlovchi davrani boshlab beradi.

Olib boruvchi: Assalomu alaykum aziz mehmonlar va kelajagimiz ertasi bo‘lmish yoshlar bugun biz shoir, jurnalist, nosir, o‘zbek adabiyotida yorqin iz qoldirgan adibimiz Mirmuhsin tavvaludining 85 yilligi munosabati bilan kutubxonada shoir ijodini xotirlab kiroboxonlar o‘rtasida “Qalb va qalam” mavzusida bellashuv tashkil etmoqdamiz. Endi marhamat bugungi bellashuv shartlari bilan tanishing. Bellashuv besh shartdan iborat bo‘lib:

1-shart: Har bir guruh o‘zini tanishtirish va guruh nishonini ta’riflab berish.

2-shart: Mirmuhsin asarlari yuzasidan guruhlar bir-biriga beshtadan savol berish.

3-shart: Mirmuhsin asaridan guruh a’zosi manalog o‘qib berish.

4-shart: Mirmuhsin asari asosida kichik sahna ko‘rinishi.

5-shart: Har ikki guruh sardori Mirmuhsin she’rlaridan bahru-bayt usulida she’riy aytishuv.

Olib boruvchi: Endi ijozatingiz bilan shartlarni baholab boruvchi hakamlar hay’ati bilan tanishing.

(Hakamlar hay’ati tanishtiriladi)

Olib boruvchi: Endi navbatni “Nazm”guruhiga beramiz. Marhamat bellashuvni boshlaymiz

(Guruh a’zolari Yu. Usmonovanning “O‘zbekiston” qo‘shig‘ini aytib chiqib keladi).

*Oq yo'rgakka o'ragansan o'zing bizni,
Oq yuvib oq taragansan o'zing bizni.
Beshigimiz uzra bedor ona bo'lib,
Kunimizga yaragansan o'zing bizni.
Adoying bo'lgaymiz seni O'zbekiston.
Hech kimga bermaymiz seni O'zbekiston.*

(Qo'shiq tugagach guruh a'zolari tanishtiriladi).

1-guruh: "Nazm" guruhi.

Guruh a'zosi Hilola:

*So'zimizning boshi salom,
Aylagaymiz keyin kalom.
Guruhimiz nomi "Nazm"
Qilgaymiz sizga tazim.
Bo'lgay mening sardorim
Tanishing guruh sardori Azim.*

Guruh a'zosi Anvar:

*Kutubxonaning kitobxonlari,
Kitoblardir olami.
Chet ellardir orzusi
Qizlarimiz sarasi,
Gullarimiz ra'nosi.
Tanishing bizning Lola.*

Guruh sardori Azim:

*Qo'lidan tushmas kitob,
Ko'kka chiqanda oftob.
Gar yo'qolsa kitob,
Bo'lib qolar betob.
Gohida yurar shitob,
Tanishing bizning Shahob.*

Guruh a'zosi Shohob:

*Qodiriyning asarida,
Bo'lgan edi qahramon.
Otashin muhabbat ila,
Topgan edi o'z Ra'nosin.*

*Qalbida bir armon
Tanishing bizning Anvar.*

Guruh a'zosi Lola:

*Yuzlaridir naqsh olma,
She'rlarida ko'p ma'no..
Bo'lmoqchidir Zulfiyadek,
Aqli raso shoira.
Sizga hurmat birla,
Tanishing bizning Hilola.*

(Guruh sardori oldinga chiqib guruh nomini ta'riflab beradi).

Guruh sardori:

-Assalomu alaykum aziz mehmonlar va qalbi daryo ustozlar, yuzlari nur kutubxonachilar. Mana bugun biz atoqli adib Mirmuhsin tavalludining 85 yilligi munosabati bilan bellashuvga guruhimiz nomini "Nazm" deb deyishimizga sabab adibimiz Mirmuhsinning nazm birla ijodini ko'rganmiz hamda guruhimizda she'riyatga qiziquvchi ixlosmandlar bo'lgani sabab "Nazm" deb nomladik.

*Nihol ekdik ko'karsin deb,
Avlodlarga meros deb.
Zavol ko'rmasin deb,
Mehr bergandir balki oftob..*

(Ta'rifdan so'ng guruh a'zolari ikkiga bo'linib sahnaning ikki tarafidan chiqib ketadi).

Olib boruvchi: Mana birinchi guruh bilan ham tanishib oldik. Endi navbat shu shartni bajarish uchun sahnaga "Navo" guruhini taklif qilamiz. Marhamat.

(Guruh a'zolari musiqa sadolari ostida ya'ni "Shaxzod" guruhining "Aziz yurtim" qo'shig'i bilan chiqib keladi va oy shaklida turib olishadi).

*Yalang oyoqda chopib yurardim,
Hech narsani o'ylamay.
Men his qilaman vatan tuyg'usin.*

*Senga qarab to‘ymay.
Ey aziz yurtim, seni kuylayman,
Har kuni senga, baxtni tilayman.*

2-guruh “Navo” guruhi:

Guruh a’zosi Botir:

*Nazm va navoda tebratar qalam,
She’riyatni sevishga o‘rgatgan olam.
She’rlardan topgay u ham orom.
Gohida esdan chiqib bermasa salom,
Tushunish kerak balki buni ham.
Shunday shoshqaloqdir bizning Kozim.*

Guruh a’zosi Nargiza:

*G‘ayrati sehrlab suyib uyg‘otar,
Ajjib hid urilar dimoqlariga.
Shirin tushlaridan uzulmay shoshar,
Tun bo‘yi zerikkan kutubxonaga.
Kitoblar tortadi uni orzular sari
Shunday xayolparastdir bizning Vali.*

Guruh a’zosi Vali

*Ziyo yo‘li sari sadolar ketdi,
Qalbi kitob bilan tillashgan kunda.
Qodiriyning fojeasiga fig‘onlar chekdi,
“O‘tgan kunlar”ni o‘qigan kunda.
Kumushdek orzusi bizning Nargiza.*

Guruh a’zosi Feruza:

*Kitoblardan o‘rgangan aqlning sirin,
Yozishning asrorin o‘rgatgan daftar.
Tashlaganda bir nazar ko‘zlarin qirin,
She’riyatga yuragi uyg‘onar takror.
Shuning uchun bilar shoirlar olamin.
Bo‘lajak shoir bizning Botir.*

Guruh a’zosi Kozim:

*Kutubxonaning qorong‘u fondlarida
Javonlarni sanab topar kitobni.*

*Qidirgan kitobni topganida,
Chiroq kelib qolar chiqarib jahlin.
Shuning uchun hayotning tor ko'chasida
Adashmasdan yurar bizning Feruza.*

Guruh sardori Kozim: Assalomu alaykum aziz mehmonlar, qalbi nur ila to'lgan kutubxonachilar va kitoblarsiz yasholmaydigan kitobxonlar. Mana bugungi bellashuv biz kitobxonlarni o'zbek adabiyotiga uning she'riyatiga bo'lgan e'tiborimizni va qiziqishimizni yana bir karra oshirdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Biz bugun atoqli adibimiz Mirmuhsin tavalludining 85 yilligini nishonlamoqdamiz. Shu munosabat bilan kutubxonamizda adib ijodiga bag'ishlab bellashuv tashkil qilinganidan biz kitobxonlar juda ham xursandmiz. Bellashuvdan maqsad qaysi bir guruhning g'olib yoki mag'lubligi emas balki adib ijodiga bo'lgan hurmat, uning asarlaridagi teran fikrlar, she'rlardagi mazmun ohanglari biz yosh avlod uchun o'rganmoq muhimdir. Guruhimizni "Navo" deb nomlashimizning sababi she'rdagi ohang nazm birla qorishib navo berishiga asoslanib "Navo" deb nomladik.

*Nazmsiz ijod bo'lmas,
Adabiyotning bo'stonida.
Viqorsiz tog' bo'lmas,
Oliy tabiat qo'ynida.*

Olib boruvchi: Mana birinchi shartni ham yakunlab oldik endi hakamlar hayati baholagunlaricha qo'shiqqa navbatni bersak.

(Gurih a'zoslaridan biri sho'x qo'shiq yoki raqs ijro etsa ham bo'ladi).

Olib boruvchi: Mana qo'shiqni ham tinglab oldik. Endi navbatni hakamlar haya'tiga beramiz.

(hakamlar hay'ati ballarni e'lon qiishadi)

Olib boruvchi: Mana ikki guruh ham o'z ballarini bilib olishdi. Endi navbat ikkinchi shartga. Bu shartda guruhlar adib Mirmuhsinning asarlari yuzasidan tayyorlab kelishgan savollarni

bir birlariga berishadi. Marhamat sahnaga “Nazm” va “Navo” guruhlarini taklif qilamiz. Shartni “Nazm” guruhi boshlab beradi.

“Nazm” guruhi:

1-savol: Mirmuhsin ijodini qaysi yillari boshlagan va dastlabki she’r va hikoyalari to‘plamaning nomini ayting?

2-savol: Mirmuhsin qaysi jurnallarda bosh muharrirlik lavozimida ish olib borgan?

3-savol: ...*Odamlar har xil, dedi u o‘ziga-o‘zi seleksiya institutidagi kishilarni ko‘z oldiga keltirib: professor Salimxon Obidiy paxtadan ko‘ra ko‘proq mol-mulkni gapiradi. O‘zining qimmatbaho narsalari bilan faxirlanadi. Qiziq bu odam darhaqiqat bir fan doktori sifatida seleksiyada ancha katta ishlar qilgan...*

Yuqorida keltirilgan parcha Mirmuhsinning qaysi asaridan olingan?

4-savol:

*Bir qiz yolg‘iz olma tagida
O‘tirardi xayolga cho‘mib,
Goh sochin o‘ynab, ohista
Qo‘shiq aytar edi sevinib.*

Yuqoridagi parcha adibning qaysi balladasidan olingan?

5-savol: Mirmuhsinning qaysi romanida Arslon ismli yigit bosh qahramon sifatida gavdalanadi?

(Har bir berilgan savolga ikkinchi guruh javob berib borishi lozim. O‘ylash uchun bir daqiqa vaqt beriladi).

Olib boruvchi: Mana bu shart bo‘yicha “Nazm” guruhi tayyorlab kelgan savollarni raqib guruhga berib bo‘ldi. Endi navbat “Navo” guruhiga. Marhamat.

“Navo” guruhi:

1-savol: Adibning qaysi qissasida Afg‘oniston yangi tarixining muhim pallasi – 1978 yilgi aprel inqilobi voqealari aks etgan?

2-savol: Mirmuhsin tarjimsaiga oid “Mixlar balladasi” qaysi adibining qalamiga mansub?

3-savol: Mirmuhsinning “Chotqol yo‘lbarisi” romanida bosh qahramon kim va u orqali nimalarni ko‘rsatmoqchi bo‘ldi?

4-savol: Mirmuhsin “Tungi chaqmoqlar” qissasida qaysi tarixiy hodisani asos qilib olgan?

5-savol: “*Inson qo‘li tok zangiday beo‘xshov. Barmoqlar pastu baland, barmoqlarda qadoqlar. Kafida qancha chiziqlari bo‘rtib chiqqan ko‘k tomirlar, tirnoqlar...*”

Lekin u tok zangi kabi samarasi beqiyos. Bu beo‘xshov barmoqlardan unar nozu ne‘matlar.

Yuqorida aytib o‘tilgan parcha adibning qaysi nasriy she‘ridan olingan?

Olib boruvchi: Mana guruhlar bir-birlariga tayyorlab kelgan savollarni berdi va ularning javoblarini ham tingladik. Endi navbat shartni baholash uchun hakamlar hay‘atiga. Marhamat.

(Hakamlar hay‘ati shartlarga berilgan ballarni aytib o‘tadi).

Olib boruvchi: 2-shartning natijalarini ham eshitib oldingiz. Endi navbat 3-shartga. Bu shartimizda ikki guruhdan bittadan ishtirokchini sahnaga taklif qilamiz. Ular Mirmuhsinning biron-bir asaridan manalog o‘qib berishadi. Marhamat shartni bajarish “Nazm” guruhi ishtirokchisiga navbatni beramiz.

“Nazm” guruhi:

“Bobir va bir tilim Farg‘ona qovuni”.

Mirmuhsin balladasi

Mudrar haybatli qasr

Sirli sukut ichida,

Posbonlar-haykal, basir...

Kuchli qo‘llar qilichda.

Hovuz misoli ko‘zgu,

Atirgullar parishon..

Bu jannatning o‘zi-ku,

Lekin jondan yo‘q nishon.

Shoh o‘tirar, oltin taxt

Ustida g‘oyat xomush,

*Hammayoq edi karaxt.
Yo‘q edi boshda ham hush.
Egnida zarrin libos,
Gavhar porlar tojida.
Qimmatroq edi bu tosh
O‘n mamlakat bojidan.
Bor emish jodu sehri
Agraning chiroyida.
Temur mirzo shavkati
Qolib ketdi poyida.
“Jannat makon” buyuk shoh
Parishon o‘tirardi.
Bir tilim qovun qo‘lda,
Ko‘zdan yosh to‘kilardi.*

Olib boruvchi: Endi navbat shu shartni bajarish uchun
“Navo” guruhi ishtirokchisiga navbatni beramiz. Marhamat.

“Navo” guruhi:

“Qamar”

Mirmuhsin dostonidan.

*Ko‘hna chinor tagida yolg‘iz,
O‘tirardi bir yamoqchi chol.
G‘arib edi ishlardi tinmay,
Donolikda edi go‘yo zol.
Quyosh qizib ketardi gohi,
Yamoqchining tushar nigohi-
To‘g‘ridagi jar yoqasiga,
Qabristonning bo‘sag‘asiga...
Ko‘rinardi quyida qishloq,
Jimjit edi, so‘lg‘in hamma yoq
Yo‘q yamoqchi mungli bo‘lsa ham,
Tun bo‘lsa ham ko‘rgan kunduzi.
Mash‘al edi uning qorong‘u-
Kulbasida yolg‘iz bir qizi...
...Qiz tug‘ilgan kuni yamoqchi-*

*Kelib ko‘rmoq bo‘pti qizini.
Doya xotin suyunchi so‘rab,
Berkitibdi qizning yuzini,
Ko‘kdagi oy uning yuzining
Ko‘rinarkan bo‘lib soyasi.*

Olib boruvchi: Mana bu shartni ham yakunlab oldik endi shartni baholash uchun hakamlar ha‘yatiga navbatni beramiz. Marhamat.

(Hakamlar ha‘yati ikki guruhning ballarini e‘lon qiladi).

Olib boruvchi: Mana Ikkala guruh ham o‘z ballarini bilib oldilar endi navbatni 3-shartga bersak shartni “Nazm” guruhi ishtirokchilari boshlab berishadi.

“Nazm” guruhi:

Ishtirokchilar:

Boshlovchi (sahna ortidan).

Podshoh

Tabiblar

Ibn Sino

Shahzoda

Jallod

(Boshlovchi sahna ortida mikrafonda sahna ko‘rinishini boshlab beradi).

Boshlovchi: Mirmuhsinning “Ibn Sino va suyak tiqilgan podshoh” nomli she‘riy balladasi asosida sahna ko‘rinishi.

(Sahna o‘rtasida podshohning taxti. Taxtda esa podshoh zarrin choponda boshida bezakli salla, yonida esa guruh ishtirokchilaridan ikkitasi shohni yelpug‘ichda yelpiydi, shoh xizmatiga shay ikki tabib qiyofasidagi ishtirokchilar turadi. Sahna ko‘rinishini boshidan oxirigacha boshlovchi sahna ortidan balladani hikoya qilib boradi, ishtirokchilar esa boshlovchi o‘qigan har bir qofiyaga kelishgan holda harakatlar qilib boradi).

Boshlovchi:

Oh urib yotardi shoh-

*O'tkir suyak bo'g'zida.
Sukut ichida dargoh,
Shum xabar el og'zida...
Ayollar chehrasida
Sarosima, tahlika.
Shahzoda-norasida,
Chiqa olmas taxtiga.
Shoh to'lg'anar oh urib,
Tun bilan chiqar yurib.*

(Bu payt podshoh boshini ushlab u yoqdan bu yoqqa yurib turadi, so'ngra taxtga o'tirib qo'lini iyagi ostiga qo'yib xomush o'tiradi).

Boshlovchi:

*Yostiq ustida iyak,-
Tomoqda o'tkir suyak.
Talvasaga tushardi,
Tabiblar kengashardi;
Izlab topolmas najot,
Xudovanda munojot...*

(Boshlovchi so'zini boshlashi bilan yonidagi tabiblar o'zaro maslahatlashib bosh qimirlatib chora topolmayotgan kishi qiyofasida bir-birlariga savolomuz boqib turishadi).

Boshlovchi:

*Uch kun o'tdi, bir qultum
Suvni ham icholmadi.
Balki o'limga mahkum,
Dunyodan kecholmadi.*

(Bu vaqtda tabiblar kosada podshohga suv tutishadi va podshoh kosani og'ziga oborib icholmasligini bildirib tabib-larga suvni qaytarib beradi va shox shunday deydi-).

Podshoh:

*Kim xalos etsa meni darddan,
Unikidir yurtim davlatim.*

Boshlovchi:

*Zor edi o'zi suvga,
Icha olsa bir qultum.
Ilmu fanni sevmagan,
Kitoblarni yoqqan shoh,
Oltinni lagan-lagan
Sarflab qoldi banogoh.*

(Boshlovchi she'ri davom ettirayotgan vaqtda shoh jahll bilan taxt yonidagi stol ustidagi kitoblarni olib yoqadi, bunda biron bir keraksiz kitobni stolga qo'yilgan bo'lish kerak bu harakatlar jonli va ishonarli chiqishi kerak. Chunki tomoshabinlar bu holatdan ta'sirlanishi kerak).

Boshlovchi:

*Yirtqichligi yo'qolib,
O'zgarib qoldi birdan.
Ilmga bo'ldi tolib,
Tiladi undan yordam.*

(Podshoh jahldan tushib taxtga o'tiradi va tabiblarga qarab biron bir tabobatga oid kitob olib kelishni buyuradi. Tabiblar zudlik bilan kitobni olib kelib beradi, shoh olib kelingan kitobni ishtiyoq bilan mutolla qiladi).

Boshlovchi:

*Podshoh odamlari
To'rt tomonga chopishdi.
Oxir buyuk hakimni
Buxorodan topishdi.
Keldi saroyga Sino,
Shitobla otni tezlab.
Fikr qildi u siymo
Dardiga davo izlab.
Kim bo'lmasin, dardga tig'
Urmoqlik tabibga farz.
Goh chuchuk, goho achchiq,
Ammo xizmat qilmoq qarz.*

(Boshlovchi she'ri boshlashi bilan bir ikki daqiqa o'tgach, sahnagi guruh ishtirokchisi ya'ni Ibn Sino odmi kiyimda egnida yaktak, boshida salla bilan sahnaga kirib keladi va shohga tazim qiladi. So'ngra shohning tomog'ini tekshiradi va tekshirib bo'lgach bir zum o'ygacha cho'madi).

Boshlovchi:

*Hakimdan najot tilab,
Shoh davlat va'da qilar...*

Ibn Sino:

*Davlating kerak emas,
Mansabu xazinang ham.
Darding og'ir, tuzalmas,
Ammo bor sirli malham-
Bitta yo'li bor shu bilan
Joning qoladi omon.
Boshqa chora yoq also,
Darding bedavo, yomon!
Holdan ketibsan tamom,
Qalbing ham tepar ojiz.
Qolmog'ing gumon omon-
Taning ham zaif mijoz...*

Podshoh:

*Qanday u malham
Qayda bo'lsa toptiray,
Qo'shin yo'llab, u yurtni
Yer bilan yakson qilay.
Daryolarning ostidan
G'ovvoslar olib chiqsin.
Tog'da bo'lsa, qullarim.
Kovlashib topib chiqsin!*

Ibn Sino:

*Yo'q, qilma yurtni yakson,
Tog'larni ham kovlama.
Qirg'inlarda buyuksan-*

*El umrini ovlama.
Shu yerda o'sha malham-
Davo o'g'lingning qoni.
Boshqa hech yoqdir davo,
Keltirsang ham anvoni.
Boshqa chora yo'qdir, xon,
Kerak o'g'ilingni so'ymoq,
Ichasan, erur shu on
Tomog'ingdagi suyak...*

Boshlovchi:

*Anduh chekib, oxiri
Podshoh bo'ldi rizo:*

Podshoh:

*Bu manga ne ko'rgilik,
Ey tangrim shumi jazo!*

Boshlovchi:

*Ko'rmasin deb xonaga
Tutib qo'yishdi parda.
Shahzodani keltirib
Shivirlab, berib dalda,
Kursiga o'tqazishdi.*

(Boshlovchi shu jummalarni boshlashi bilan sahnadagi shoh taxtiga ko'rinmas qilib parda tutib turiladi iikki yordamchi ushlab turadi va guruh ishtirokchilardan biri shahzoda ko'rinishidagi yigit sahnaga kirib Ibn Sino yoniga keladi, bu ish oddiy tomoshaligini Ibn Sino tushintirib jallokning yoniga oddiy yasalgan echkini olib kelishadi va pichoqlarni charhlashga tushib ketadi).

Boshlovchi:

*Bir echkini keltirib,
Bog'lashib, yotqizishdi.
Pichoqni charxladilar,
Pardaning orqasida.
Talvasada podshoh,*

*Boshi yanchiq ilondek
To'lg'anib chekardi oh.
Echkini bo'g'izladi,
Xirilladi, qichqirdi...
Sharqirab oqarkan qon,
Birdan shoh chekdi faryod,
O'rnidan turib ketdi.
Bo'g'zidagi suyagi
Otilib chiqib ketdi.
Pardani olib tashlab,
Tig' ko'tardi Sinoga.
Tirik farzandin quchib,
Boqdi buyuk siymoga.
Yorishib butun jahon,
Odamlarga boqdi shoh.
Omon qoldi shirin jon,
Na malham va na jarroh
Kerak bo'ldi bu safar.*

*(Bu vaqt shoh taxtdan tushib pichoq olib Sinoga
otilmoqchi bo'ganda tirik o'g'lini ko'rib xursand bo'lib o'g'lini
bag'riga bosadi va xursand bo'lib Sinoga boqadi va shunday
deb so'z boshlaydi)*

Podshoh:

*Tila ey, dono odam,
Tilagingga yetasan,-
Quruq ketib netasan?*

Ibn Sino:

*Davlatingu xazinang
O'zingga bo'lsin qaram.
Lutf etmoq bo'lsang menga,
Ko'rsatgil yurtga karam...*

Boshlovchi:

*Shunday deb Ibn Sino
Saroydan chiqib ketdi.*

Buyuk tabib shuhrati

Butun jahonga yetdi.

(Boshlovchi bu soʻzlarni boshlashi bilan sahnadan chiqib ketayotgan Ibn Sinoga tikilib qolgan podshoh oʻgʻlini yetaklagan sahnadan chiqib ketadi, boshqa ishtirokchilar ham chiqib ketishadi).

Olib boruvchi: Mana hozirgina siz “Nazm” guruhi ishtirokchilari tomonidan tayyorlangan sahna koʻrinishi bilan tanishdingiz. Endi navbat shu shartni bajarish uchun sahnaga “Navo” guruhini taklif qilamiz. Marhamat.

“Navo” guruhi:

Ishtirokchilar:

Boshlovchi (sahna ortidan)

Luqmoni Hakim

Shahzoda

Boyvuchchaning oʻgʻli

Dehqon

Dehqoning oʻgʻli

Boshlovchi: Mirmuhsinning “Luqmon va Oʻroqboy” sheʼriy balladasi asosida sahna koʻrinishi.

Sahna koʻrinishi boshlanishi bilan hamma ishtirokchilar oʻz oʻrnini egallab oladi. Sahna oʻrtasida gilam toʻshalgan. Koʻrpacha solinadi, Luqmoni Hakim esa boshida salla, egnida yaktak chordona qurib oldida kitob lavhi va kitob mutola qilib oʻtiryadi, yonida bir qancha tibbiyotga doir kitoblar qoʻyilgan boʻladi, uning yonida parda tutilgan bir xona qilingan. U yerda katta toʻnka, yonida eskirgan koʻrpa-toʻshak.

Bor ekanu yoq ekan,

Och ekanu toʻq ekan...

Qadimgi zamonlarda,

Samarqand tomonlarda

Boʻlganmish Luqmoni Hakim.

Dard bilan kelib har kim-

Davo topibdi undan.

*Fikrda Aflotindan
Ancha o'tkirroq ekan,
U zamondagi ulkan
Allomalardan dono.
Kitoblari yor ekan,
Kamakcha hushyor ekan.
Unga yetmaskan also
"Tariqaiy Aql"lar...
Ne-ne ajib naqlar
Tarqalgan ekan elda.
U izlabdi yoshlardan
Tadbirli bir shogirdni.
Hech kim o'tmay qolarkan
Bajara olmay shartni.
Sharti: sovuq xonaga
Qamab qo'yarkan bir tun.
Erta bilan yoniga
Kirarkan Luqmoni Hakim,
Marmardan devorlari,
Xona sovuq, naq qishdek.
Bir katta to'nka bilan
Turarkan ko'rpa-to'shak.
Shahzodalar kelibdi,
Serkillatib jag'ini.*

(Bu oxirgi ikki misra boshlanishi bilan Luqmoni Hakim oldiga egnida zarrin yaktak boshida bezakli salla bilan shahzoda kirib keladi va tabibga ta'zim qilib shartni bajarmoqchiligini aytib, shartni bajarishga parda tutilgan joyga kiradi).

Boshlovchi:

*Zax xonaga kiribdi,
Muzlab qolibdi tani.
Bekzodlar kelibdi,
Taglarida jiyron toy.
Sovuq uyga kiribdi,*

*Qotibdi shahzodaday.
Boyvuchchalar kelibdi,
Luqmon oldiga bir-bir.
Sovuq uyga kiribdi,
Tanlari oshmagan xamir.
Luqmon har tong kirarkan,
Ko‘rib tishlar ekan lab.
Noshudlarni davolab,
So‘ng haydab jo‘natarkan.*

(Boshlovchi bu misralarni o‘qiyotgan vaqtda Luqmoni Hakim yoniga shahzodadan keyin, shahzodadek kiyingan boyvuchchaning o‘g‘li kirib keladi va shartni bajaraish uchun parda tutilgan joyga kiradi va bu ham shartni bajara olmaydi, Luqmoni Hakim parda ortidagi bo‘lajak shogirdlarni ko‘rib labini tishlab, noshudlardan jahli chiqib ularni davolashga kirishadi, davolash uchun sahnada Luqmoni Hakim o‘tirgan joyga davolash anjomlari qo‘yilgan bo‘ladi).

Boshlovchi:

*Bir dehqon ham uzoqdan
Boshlab kelibdi chirog‘in.
Sudrab kebdi oyoqda-
Yirtiq, eski chorig‘in.*

(Bu misralar o‘qilayotgan vaqtda sahnaga eski juldir kiyimdagi ota va o‘g‘il Luqmoni Hakim yoniga kirib keladi).

Boshlovchi:

*-Orzuga ayb yoq,-debdi...
Salomdan so‘ng so‘zlabdi:*

Dehqon:

*“Ey, Luqmoni Hakim, sening
Dong‘ing tutdi olamni,
Bag‘ri keng-ku limning,
Shogirdga ol bolamni”.*

Boshlovchi:

*Luqmon ko'rib, unabdi:
-Kirsin,- debdi,-xonaga.
-Kelaman-deb,-jo'nabdi,-
Tongda uning yoniga.
Dehqon o'g'li O'roqboy
Kiribdi uyga tezda.
Qarab, o'ylabdi bunday...
Oyoq achibdi muzda.
Sanchilgan kabi igna.
Zirqirab ketibdi tan,*

(Parda ortiga kirgan dehqonning o'g'li sovuqqatgan kishidek zir qaltiragan qiyofaga kiradi va u yoqdan, bu yoqqa yuradi va o'ylab ko'rpa to'shakni yig'ib to'nka tomon yuradi).

Boshlovchi:

*Shovdirab juldur egni,
Titrab ketibdi birdan.
O'ylab, to'shakni yig'ib,
To'nka tomon yuribdi.
Bir botmon zil to'nkani
Dumalataveribdi.
O't chiqib badanidan,
Qizibdi misoli cho'g',
Samovarday tanidan
Ko'tarilibdi ter, bug' ...
Tanni sovutmay, shu on
Qo'lga bolta olibdi.
To'nka ustiga chunon
Gursillatib solibdi.
Olovdek bo'lib tani,
Ketibdi o'tin yora.
Ulkan, chayir to'nkani
Qilibdi tilka-pora.*

(Sahnada dehqonning o'g'li to'nkani u yoqdan, bu yoqqa dumalatadi, sahna bo'lgani uchun katta to'nkamas kichikroq to'nka qo'yilgan bo'ladi. Dumalatib tani qizigach to'nka yonidagi boltani olib uni yora boshlaydi, to'nkani kichik-kichik o'tinlar qilib qo'yadi. Agar sahnada buni iloji bo'lmasa kichik o'tinlar qo'yiladi, lekin sahna jonli chiqishi uchun imkon bo'lsa kichik to'nkani yorish ma'qul bo'ladi).

Boshlovchi:

*Tongda kirarkan Luqmon,
Ko'rib, qolgan hayratda.
"ofarin, debdi katta,-*

Luqmoni Hakim:

Noming nima, ey dehqon?"-

Dehqon o'g'li O'roqboy:

Nomim O'roqboy.

Boshlovchi:

*"Qol,-debdi,-sen chirog'im,
Yaxshi shogird bo'lasan,
Qolgin, o'tkir o'rog'im!"*

(Bu paytda Luqmoni Hakim O'roqboyning yelkasidan qoqib, uni shogirdlikka olib qolishini, aytib qilgan ishiga tahsinlar aytadi).

Boshlovchi:

*Shundan boshlab O'roqboy
Ustozga bo'pti qanot.
Necha yilu necha oy
Fanga qo'yib e'tiqod,
O'rganibdi, o'qibdi.
Qancha kitob o'qibdi...*

(Bu misralarni o'qishni boshlaganda Luqmoni Hakim va shogirdi O'roqboy sahnaga qilingan darsxonada kitob o'qib, shogird ustozdan tushunmagan narsalarini o'zaro so'rab o'tiradi. Sahnada ko'rinishini har bir misralarga moslashtirib ishtirokchilar o'sha obrazni ochib bera olishlari kerak).

Boshlovchi:

*Ustozdek ish bilan
Mashhur bo'пти jahonda.
O'roq Faloniy degan,
Nomi ham qopti fanda.*

(Ballada shu joyda yakun topadi. Sahnada bo'lsa shogird va ustoz birga o'rnidan turib kitoblarni qo'lga olgan ko'yi sahnadan chiqib ketadi va shu yerda sahna ko'rinishi yakunlanadi).

Olib boruvchi: Mana bu shartimizni ham ikkala guruh bajarib bo'ldi. Endi yana hakamlar hay'atiga yuzlansak.

(Hakamlar hay'ati shartni bajargan ikkala guruh baholarini e'lon qiladi)

Olib boruvchi: Mana guruhlar 4-shart uchun olgan baholarini bilib oldilar. Endi navbat 5-shartga. Bu shartna bajarish uchun ikki guruh sardorini sahnaga taklif qilamiz. Bu shartni bajarish uchun guruh sardorlari Mirmuhsin she'rlarini o'qib, yodlab, tayyorgarlik ko'rib kelgan bo'lishlari kerak. 5-shart "Bahru-bayt" ya'ni she'riy aytishuv tarzida bo'lib, she'rning tugagan oxirgi harfidan keyingi ishtirokchi davom ettiradi.

"Nazm" guruhi sardori:

*Pand berarmish to'g'ri so'zligim,
Ba'zilarga yoqmas emishman;
Unutding, der ular o'zliging,
Inoq do'stlar bo'lmasmi dushman?*

"Haqgo'ylik" 1965 yil

"Navo" guruhi sardori:

*Nasrimiz daryo-yu Nazm-shalola,
Ulug' Navoiyning so'lmas g'azali.
Bahoru she'riyat egizak azaliy,
Kimni maftun etmabdi tog'dagi lola-*

"Nasr va Nazm" 1980 yil

“Nazm” guruhi sardori:

*Agar mendan so‘rasalar; -Kim sening yaqin do‘sting?
Kimga sen ishonasan taqdiru hayotingni?
Ijodingda kim bilan maslakdoshu yo‘l bosding?
Kim sening zarhal bilan yozdi kulol otingni?*

“Agar mendan so‘rasalar” 1958 yil

“Navo” guruhi sardori:

*Ikki narsa inson qalbin gavhar qilar umrbod-
Ikki narsa qallda ekan, mamlakat bo‘lar obod;
Biri-Vatan ishqi, biri-do‘stlik, uni yo‘qotma-
Quyoshingni oy bilan almashtirib bo‘lma shod!*

Noyob do‘stlik 1960 yil

“Nazm” guruhi sardori:

*Dunyoda odamzodning ikki tilligi yomon,
Ikki yuzli odamda bo‘lmas ishonchu imon.
Har qancha kerilmasin, kimxobga o‘ralmasin,
Ming yiltiragan bilan oltin bo‘lolmas somon.*

“Otin va somon” 1960 yil

“Navo” guruhi sardori:

*Nima qilding dunyoga kelib?
Ne ishing la eslaydi avlod?
Qadr qilib va ota bilib
Bir kun bizdan so‘raydi avlod.*

“Mehnat va to‘y” 1967 yil

(Shart shu tarzda davom ettiriladi, bu shartga 10 daqiqa beriladi va bu vaqtga qadar har ikki ishtirokchi misraning tugagan xarfiga navbatma-navbat she‘r aytishi lozim. Agar bir ishtirokchi misraning tugagan harfiga 30 soniya ichida she‘r aytolmasa aytishuv tugatiladi, lekin ikkala ishtirokchi 10 daqiqagacha to‘xtamasdan aytsa unda ikkala guruhga ham bir xil ball qo‘yiladi).

Olib boruvchi: Mana so‘nggi shartni ham yakunladik, endi navbatni hakamlar hay’atiga beramiz marhamat.

(Hakamlar hay'ati so'nggi shartni baholaydi va umumiy ballarni e'lon qiladi. G'olib guruh aniqlanadi va homiylar tomonidan tayyorlangan sovg'alar ikki guruhga ham taqdim etiladi).

Olib boruvchi: Mana aziz ishtirokchlar va hurmatli mehmonlar bugungi tadbirimiz ham yakunlandi. Bizning bu tadbirdan maqsadimiz kimdir g'olib yoki mag'lub bo'lishi emas, balki atoqli adibimiz Mirmuhsin hayoti va ijodini mukammal o'rganish maqsadida tashkil qildik. Bu bilan biz o'zbek adabiyoti durdonalariga va ularning ijodkorlariga bo'lgan e'tiborimizni yana bir karra bo'lsada shu tadbir orqali oshirdik desak mubolag'a bo'lmaydi. Azizlar ishtirokingiz uchun rahmat.

“Mirmuxsinning ijodiy bo'stoni” nomli kitob-suratli ko'rgazmani tashkil etish uchun materiallar

Taklif etilayotgan kitob ko'rgazmasi kutubxonada o'tkaziladigan tadbirlarni to'ldiradi.

Ko'rgazma quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oladi.

1. Mirmuhsin hayoti va ijodiyoti sahifalari

Bu bo'limga Mirmuhsin hayoti va ijodiy faoliyati haqidagi nashrlar qo'yiladi.

2. Mirmuhsin shoir va jurnalist

Bu bo'limga Mirmuxsinning she'riy to'plamlari va jurnalistik faoliyatiga doir nashrlar qo'yiladi.

3. Mirmuhsin hajvchi va tarjimon

Bu bo'limga adibning “Mushtum” jurnaliga yaratgan hajviy maqolalari va uning tarjimalari qo'yiladi.

4. Mirmuhsin o'zbek adabiyotida

Bu bo'limda shoir va yozuvchilarning Mirmuhsinga bag'ishlangan adabiyotlari namoyish etiladi.

**Kutubxonalarda o‘tkazish mumkin bo‘lgan tadbirlar
turkumi**

“Kalomu qalamga mir va pir Mirmuhsin”

Davra suhbat uchun savollar

1. Mirmuhsin she’riyatidagi dunyoqarashning asl mohiyati nimadan iborat?
2. Mirmuhsinning romanlarida hayot falsafasi qanday talqin qilingan?
3. Mirmuhsinning hikoya, qissalarida bosh qahromonning ijobiy, salbiy tomonlarini qanday holatlar bilan ko‘rsata olgan? (Misollar keltiring)
4. Mirmuhsin asarlarida ko‘proq qanday manzara aks etgan?
5. Mirmuhsin 60 yillarda hajviy asarlar yaratishga nima turtki bo‘ldi?
6. Adib “Chodrali ayol” qissasiga nima uchun Afg‘oniston yangi tarixining muhim pallasi – 1978 yilgi aprel inqilobi voqealarini qalamga olgan? Bu haqida sizning fikringiz.

Kitobxonlar konferensiyasi

1. “Mirmuhsinning adabiy merosi”.
2. ”Umid” romani asosida.
3. “Asr oshgan asarlar”.
4. “XX asr o‘zbek adabiyotining shoir va jurnalisti” kabi mavzularda
“Iste’dodli shoir va haqgo‘y adib” mavzusida kitob ko‘rgazmasi va ko‘rgazmadagi adabiyotlar obzori.

Mavzuli kecha

1. “Mirmuhsin asarlarida milliylikning ulug‘lanishi”.
2. “Adib asarlarida vafo, sadoqatning tasvirlanishi”
3. “Mirmuhsin asarlarida ma’naviy-ahloqiy muommalarning aks ettirilishi”.
4. “Adib asarlarida xalqimiz udumlariga xos fazilatlarining tasvirlanishi” kabi mavzularda
“Buyuk va suyuk shoir” mavzusida kitob ko‘rgazmasi va ko‘rgazmadagi adabiyotlar obzori.

Bilimdonlar bellashuvi

1. “Ulkan adib, lirik shoir, mohir tarjimon va jurnalist faoliyatini bilasizmi?”

2. “Mirmuhsinning hajviy asarlarini bilasizmi?”

3. “Mirmuhsinning muharrirlik faoliyatini bilasizmi?” kabi mavzularda.

“Mirmuhsin o‘zbek adabiyotining faxri”, “Mirmuhsin she’riyat yulduzi” kabi mavzularda kitob ko‘rgazmasi va ko‘rgazmadagi adabiyotlar obzori.

Davra suhbat

1. “O‘z xalqi va o‘z millati tarixining badiiy manzarasini tasvirlagan adib”.

2. “Mirmuhsin she’rlaridagi zaminga yaqinlik manzaralari”

3. “Mirmuhsinning “Mushtum” jurnalidaigi faoliyati”.

4. “Mirmuhsin asarlarida vatan madhi” kabi mavzularda “Milliylikni kuylagan shoir”, “Mirmuhsin she’rlarida yashagan sevgi” kabi mavzularda kitob ko‘rgazmasi va ko‘rgazmadagi adabiyotlar obzori.

Savol-javob kechasi

1. “Mirmuhsin ijodida romanlarning o‘rni va mohiyati”

2. “Mirmuhsin hayoti va faoliyatiga bir nazar”

3. “Adib hikoyalarida xalqni savodli, bilimli, madaniyatli va ozod ko‘rish istaklari”

4. “Mirmuhsin she’riyatida sevgi va vafoning tasvirlanishi” kabi mavzularda

“Xalq mehrini qozongan ijodkor”, “Kulol farzandi Mirmuhsin” kabi mavzularda kitob ko‘rgazmasi va ko‘rgazmadagi adabiyotlar obzori.

“Uchrashuv kechasi”

I. Adabiyotshunos olimlar bilan

1. Naim Karimov

2. Sobir Mirvaliyev

3. Aziz Qayumov

Munozara kechasi

1. “Mirmuhsin she’riyatida zamin, davr va tarix manzaralari-ning tasvirlanishi”.

2. “O‘zbek adabiyotida Mirmuhsin nasriy ijodining ahamiyati” kabi mavzularda

“Mirmuhsin betakror iste’dod sohibi”, “Mirmuhsin shoir va jurnalist” kabi mavzularda kitob ko‘rgazmasi va ko‘rgazmadagi adabiyotlar obzori.

Xotira va qadrlash soati

1. “Mangulikka daxldor adib”.

2. “Adibni eslab”

3. “Mirmuhsin xalqning iftixori”

4. “Adib hamisha kitobxon qalbida” kabi mavzularda

“Mangu baxtli siymo”, “Adib chirog‘i o‘chmagay”, “Mirmuhsinni xotirlab” kabi mavzularda kitob ko‘rgazmasi va ko‘rgazmadagi adabiyotlar obzori.

Og‘zaki jurnal

1. “Mirmuhsin shoir va tarjimon”.

2. “Mirmuhsin jurnalist va muharrir”

3. “Mirmuhsinning hayot va ijod yo‘li” kabi mavzularda

“**Mirmuhsin 85 yoshda**” rukni ostida kartoteka tuzish va kartotekani asarlarining alohida nashrlari, u haqidagi materiallar bilan boyitib borish.

“**Mirmuhsin 85 yoshda**” rukni ostida mavzuli papkalar tashkil qilish va rasmlarining albomlarini tashkil qilish.

Qatnashuvchilar joylardagi “Ma’naviyat va ma’rifat” jamoatchilik markazi, “Oltin meros”, “Mahalla”, “Nuroni”, “Sog‘lom avlod” jamg‘armalari vakillari, “Kamolot” yoshlar ijtimoiy xarakati, xotin-qizlar qo‘mitalarining vakillari, san’atkorlar, yozuvchi va shoirlar, adabiyot bilimdonlari hamda keng kitobxonlar ommasini jalb qilish maqsadga muvofiq.

Адабиётлар

Мирмуҳсин. Танланган асарлар тўплами: 3 томлик / Таҳрир ҳайъати: У. Норматов, Ш. Шоабдурахмонов, М. Нурмухамедов ва бошқ.-Т.: Адабиёт ва санъат нашр., 1970.-1972.

Т.1: Ҳикоялар / Изоҳлар билан нашрга тайёрловчилар: Ҳ. Ёқубов, Г. Ёқубова; Масъул муҳаррир М.Иброҳимов.-1970.-460 б.

Т.2: Достонлар / Изоҳлар билан нашрга тайёрловчилар: 3. Саидносирова, Ҳ. Ёқубов; Масъул муҳаррир М.Иброҳимов.-1971.-260 б.

Т.3: Қиссалар /Изоҳлар билан нашрга тайёрловчилар: 3. Саидносирова, Ҳ. Ёқубов; Масъул муҳаррир М. Иброҳимов.-Т.:Адабиёт ва санъат нашр., 1972.-422 б.

Мирмуҳсин. Асарлар: 4 жилдлик Ж. 1. Шеърлар, балладалар, достонлар: Шеърлий роман.-Т.: Адабиёт ва санъат нашр., 1988.-317 б.

Мирмуҳсин. Асарлар: Ж.2. Умид; Дегрез ўғли: Романлар.-Т.: Адабиёт ва санъат нашр., 1981.-786 б.

Мирмуҳсин. Асарлар: Ж.3. Меъмор; Чотқол йўлбарси: Романлар.-Т.: Адабиёт ва санъат нашр., 1982.-734 б.

Мирмуҳсин. Асарлар: Ж. 4. Ҳикоялар, Қиссалар.-Т.: Адабиёт ва санъат нашр., 1988.-317 б.

Мирмуҳсин. Дегрез ўғли: Роман.-Т.: Адабиёт ва санъат нашр., 1973.-375 б.

Мирмуҳсин. Жамила: Ҳикоя.-Т.: Адабиёт ва санъат нашр., 1957.-96 б.

Мирмуҳсин. Жануб гули: Ҳикоялар.-Т.: Адабиёт ва санъат нашр., 1966.-67 б.

Мирмуҳсин. Зиёд ва Адиба: Шеърлий роман.-Т.: Адабиёт ва санъат нашр., 1959.-212 б.

Мирмуҳсин. Илдизлар ва япроқлар: Роман.-Т.: Адабиёт ва санъат нашр., 1989.-384 б.

- Мирмуҳсин. Ирмоқлар: Шеърлар. Т.:Ўздавнашр, 1960.-60 б.
- Мирмуҳсин. Лирик шеърлар.-Т.: Ёш гвардия, 1984.-95 б.
- Мирмуҳсин. Менинг эртам: Ҳикоялар.-Т.: Ёш гвардия, 1981.-175 б.
- Мирмуҳсин. Иқбол ва каклик: Ҳикоялар.-Т.: Ўзадабий-нашр., 1958.-24 б.
- Мирмуҳсин. Невара: Достон.-Т.: Адабиёт ва санъат нашр., 1971.-21 б.
- Мирмуҳсин. Тонгни қутлаб: Шеърлар ва достонлар.-Т.: Адабиёт ва санъат нашр., 1971.-110 б.
- Мирмуҳсин. Тунги чакмоқлар: Повесть ва ҳикоялар.-Т.: Адабиёт ва санъат нашр., 1965.-302 б.
- Мирмуҳсин. Уста Ғиёс: Поэма.-Т.: Ўздавнашр, 1947.-63 б.
- Мирмуҳсин. Чиникиш: Роман.-Т.: Ёш гвардия, 1970.-184 б.
- Мирмуҳсин. Чодрали аёл: Афғон қиссаси.-Т.: Адабиёт ва санъат нашр., 1986.-120 б.
- Мирмуҳсин. Чўри: Повесть.-Т.: Ёш гвардия, 1962.-91 б.
- Мирмуҳсин. Бир она қисмати: Ҳикоя //Совет Ўзбекистони.-1989.-17 июль.
- Мирмуҳсин. Бир хумча тилла: Ҳикоя //Тошкент оқшоми. 1966.- 12 сент.
- Мирмуҳсин. Бобур ва бир тилим Фарғона қовуни: Баллада //Ўзбекистон маданияти.-1966.- 29 янв.
- Мирмуҳсин. Буви: Илдизлар ва япроқлар романидан //Гулистон.-1988.-№10.-Б. 12-14.
- Мирмуҳсин. Дўст: Ҳикоя //Тошкент оқшоми.-1985.-18-19 март.
- Мирмуҳсин. Занжирбанд шер: Романдан парча //Тошкент оқшоми.-1998.-12 окт.
- Мирмуҳсин. Китоб ўқимайдиган ўртоқ Сафаев //Муштум.-1978.-№7.-Б. 10-11.

- Мирмуҳсин. Моварауннаҳр: Роман //Гулистон.-1992.-№ 5-6.-Б. 6-8.
- Мирмуҳсин. Авесто: Шеърлар //Шарқ юлдузи.-1967.-№10.-Б. 149-150.
- Мирмуҳсин. Даладаги аёллар: Шеърлар //Шарқ юлдузи.-1972.-№1.-Б. 16-17.
- Абдуллаев С. Ҳурматли Мирмуҳсин домла: Китобхоннинг “Чотқол йўлбарси” романи ҳақидаги мулоҳазаси //Ўзбекистон матбуоти.-2001.-29 нояб.
- Абдурахмонов Х. Истеъдод қирралари: Мирмуҳсин ижоди ҳақида //Ўқитувчилар газетаси.-1990.-13 май.
- Адиб ҳақидаги фикрлар: Мирмуҳсин ҳақида //Тошкент окшоми.-1998.-13 май.
- Адибни қутлаб: Мирмуҳсин таваллудига бағишлаб //Ўзбекистон адабиёти ва санъати.-1999.-17 май.
- Акбаров Ю. Чўрининг тақдири: Мирмуҳсиннинг “Чўри” номли қиссаси ҳақида //Ўзбекистон матбуоти.-1998.-25 май.
- Аминова М. Маҳсулдор адиб: Мирмуҳсин ижоди ҳақида //Ўзбекистон матбуоти.-1995.-28 май.
- Ашрапов А. Жўшқин ҳаёт куйчиси: Мирмуҳсин ижоди ҳақида //Ўқитувчилар газетаси.-1991.-13 май.
- Жафаров Т. Ёзувчилар уюшмасига келган бир хат...: Ўзбекистон халқ ёзувчиси Мирмуҳсинга //Гулистон.-2002.-№5.-Б.17.
- Жўраев О. Мирмуҳсин-Ўзбекистон халқ ёзувчиси //Ўзбекистон матбуоти.-2002.-№ 4.-Б. 8.
- Мирзаёр Ўктам. Калому қаламга мир ва пир: Мирмуҳсин ҳамкасабамиз, яъни ўзимиздек хоксор журналист //Халқ сўзи.-2003-16 май.
- Мирзаёр Ўктам. Толмас қалам соҳиби: Мирмуҳсин 80 ёшда //Ўзбекистон матбуоти.-2001.-№17.-Б. 14-17.
- Мирсаид Миршакар. Ишқ ўти: Шеър /Тожикчадан Мирмуҳсин тарж.//Ўзбекистон адабиёти ва санъати.-1996.-20 окт.

Мирсаид Миршакар. Ҳақиқат ва афсона: Шеър /Мирмуҳсин тарж.//Тошкент окшоми.-1998.-27 апр.

Мирмуҳамедов Ш. 1921-2005 Мирмуҳсин Мирсаидов-Ўзбекистон халқ ёзувчисига таъзиянома //Ўзбекистон адабиёти ва санъати.-2005.-4 февр.

Тўраев Д. Халқ билан ҳамнафас ижод: Ўзбекистон халқ ёзувчиси Мирмуҳсин 80 ёшда // Ёш куч.-2001.-№ 3.-Б. 3-4.

Ўтган йилнинг шарофати, янги йилнинг каромати: Юксак мукофат соҳиби Мирмуҳсин //Қишлоқ ҳақиқати.-1992.-янв.

Қосимов Б. Маърифатчилик-фидойилик: Ўзбек ёзувчиси Мирмуҳсин ҳақида //Ўзбекистон овози.-2002.-28 нояб.

Bosishga ruxsat etildi 2006-yil May
Bichimi 60x84 ¹/₁₆ nashr. t. Adadi 300 nusxa. Buyurtma №
Toshkent sh., X.Sulaymonova ko'chasi, 33-uy
Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi
bosmasida chop etildi